



Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

**O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri**

**2025-yil 24-iyul
payshanba**

№ 30 (4724)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

QO'SHQANOTLAR

HAMMA HAVAS BILAN QARAYDI



Shunday kasblar borki, ularda er-xotinning o'zaro bir-birini tushunishi muhim ahamiyatga ega. Bunday kasblarni asosan san'at sohasida bo'lsa kerak, deb o'ylashadi ko'pchilik. Ammo harbiy soha, xususan, ichki ishlar tizimida ham bunday o'zaro tushunchaga ehtiyoj katta. Shuning uchun Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bir kursda ta'lim olib, keyinchalik taqdir yo'llarini birga bog'lagan namanganlik yigit, bugun

yelkasida podpolkovnik yulduzi charaqlab turgan Ibrohimjon Sidiqov bilan farg'onalik qiz, podpolkovnik Nigora Qayumovaning o'zaro oila qurishganini ko'pchilik omadli turmush, deb baholashadi. Ularning harbiy kiyimiga havas bilan qarashadi.

Ushbu qahramonlarimiz faoliyati haqidagi maqolani gazetamizning 2-sahifasida o'qiydiz.

(Davomi 2-betda).

HAFTA YANGILIKLARI

O'ZBEKISTON BARQAROR RIVOJLANISH INDEKSIDA YUQORILADI

O'zbekiston 2025-yil uchun barqaror rivojlanish maqsadlari indeksidagi ko'rsatkichlarini yaxshiladi. Mamlakatimiz 2024-yilga nisbatan 19 pog'onaga ko'tarildi va 2015-yildan buyon Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari o'rtasida jadal rivojlanayotgan davlat sifatida e'tirof etildi.

JIZZAXDA ZAMONAVIY TURIZM MARKAZI

Jizzaxning turfa tabiati, tog'li va cho'l hududlari yilning to'rt faslida ham sayohat qilish imkonini beradi. «Zomin» turistik-rekreatsiya zonasi, Zomin aeroporti va yangi yo'llar bu imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Yirik 6 ta kanal bo'yida sayilgohlar tashkil qilindi.

Endi «Aydar-Arnasoy» ko'llar tizimi qirg'oq bo'yida ham zamonaviy turizm markazi barpo etiladi. Bu haqda Davlatimiz rahbarining sanoat va ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa obyektlar bilan tanishish maqsadida viloyatga tashrifi chog'ida ma'lum qilindi.

REKORD NATIJALAR BILAN

Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni Urumchi shahrida bo'lib o'tgan «O'tkir tig'-2025» xalqaro snayperlar musobaqasida 25 ta davlat vakillaridan iborat 45 ta jamoa ishtirok etdi.

Mazkur musobaqada O'zbekiston Milliy gvardiyasi jamoasi rekord natijalar bilan birinchi o'rinni egallagan holda mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Merganlarimiz musobaqa yakuniga ko'ra, 8 ta medal, 10 ta diplom va qimmatbaho sovg'alar, shuningdek, eng murakkab yo'nalishlarda g'alaba qozongan jamoa sifatida musobaqa kubogi sohibiga aylanishdi.

XALQARO ALOQALAR

O'ZBEKISTON VA VENGRIYA:

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH YO'NALISHIDA HAMKORLIK MUSTAHKAMLANMOQDA

Joriy yil-
ning 17-18-iyul
kunlari O'zbekiston
Respublikasi Ichki ishlar
vaziri general-mayor
Aziz Tashpulatov boshchili-
gidagi delegatsiya Veng-
riya davlatiga rasmiy
tashrif buyurdi.

Tashrifning asosiy maqsadi ikki davlatning huquqni muhofaza qilish sohasidagi hamkorligini rivojlantirish, mamlakatlar ichki ishlar vazirliklarining sohaviy xizmatlari o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda Vengriya politsiyasining ilg'or tajribasi bilan tanishishga qaratildi.

Tashrif jarayonida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri general-mayor Aziz Tashpulatovning Vengriya Ichki ishlar vaziri doktor Shandor Pinter bilan rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida tomonlar ikki davlat o'rtasidagi shartnomaviy-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, kiberjinoyatchilik va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo ishchi uchrashuvlarini tashkil etish, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va Budapesht shahar Politsiya boshqarmasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, jamoat tadbirlari va turistik obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tajriba almashish hamda kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha masalalarni muhokama qildilar.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Vengriya Ichki ishlar



vazirligi o'rtasida 2025 – 2026 yil-larga mo'ljallangan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» imzolandi.

Vengriyaga tashrif jarayonida Ichki ishlar vazirligi delegatsiyasi a'zolari mamlakatning huquqni muhofaza qilish yo'nalishidagi ilg'or tajribasi va ta'lim sohasi bilan yaqindan tanishdilar. Jumladan, tadbir davomida mamlakatimiz delegatsiyasining Vengriya Milliy kiberxavfsizlik instituti boshlig'i doktor Layosh Sabo bilan uchrashuvi o'tkazildi.

Uchrashuvda tomonlar hozirgi zamon kibertahdidlariga munosib qarshi kurashish tizimi, internetdagi xurujlar va hodisalarning oldini olishga qaratilgan idoralararo hamkorlik, kiberjinoyatlarni tahlil qilish usullarini hamda hamkorlikda o'quv kurslarini tashkil etish masalalarini muhokama qildilar.

Shuningdek, mamlakatimiz delegatsiyasi Budapeshtdagi Xalqaro huquqni muhofaza qilish organlari akademiyasi faoliyati bilan ham

tanishib, o'zbekistonlik mutaxassislar uchun xalqaro va malakaviy kurslar tashkil qilish masalalariga e'tibor qaratdilar.

Budapesht politsiya boshqarmasining xizmat jarayonini o'rganish davomida, Vengriya poytaxtining Smart City (Aqlli shahar) videonazorat tizimi, jamoat xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlarni prognozlashtirish va tahlil qilish, tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda politsiyaning kuch va vositalarini to'g'ri taqsimlash tizimi bilan tanishib, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va Budapesht shahar Politsiya boshqarmasining amaliy hamkorligini mustahkamlash masalalarini muhokama qildilar.

O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari Vengriyaning Terrorizmga qarshi kurashish markazining faoliyatini o'rgandilar. Ushbu jarayonda o'zbekistonlik mutaxassislar Vengriya amaliyotida radikallashtirish shaxslarni aniqlash, xalqaro terrorchilik guruhlarini fosh etish, ularning faoliyatini o'rganish hamda on-layn muhitda tahdidlarni

monitoring qilish mexanizmlari bilan tanishdilar.

Tashrif jarayonida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi delegatsiyasi Vengriya Politsiya akademiyasining faoliyati bilan tanishdi. Akademiya rahbari doktor Ernyo Krauzer bilan olib borilgan muzokaralarda, politsiya xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish, Vengriya politsiyasi tomonidan olib borilayotgan innovatsiyalar va tajribalarni O'zbekiston sharoitida joriy etish, shuningdek, kursantlar va professor-o'qituvchilar uchun stajirovka tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi delegatsiyasining Vengriyaga rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasida huquqni muhofaza qilish yo'nalishida hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda o'zaro ishonchli munosabatlarni yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Shohrux GIYASOV,
ichki ishlar vazirining
maslahatchisi, polkovnik.

QO'SHQANOTLAR

HAMMA HAVAS BILAN QARAYDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Ibrohimjon bugun Namangan viloyati IIB JXX YHXB muhim topshiriqlar bo'yicha katta inspektor, Nigora esa viloyat IIB JXX HPB boshlig'ining o'rinbosari, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i lavozimida xizmat qilmoqda.

– Esimda, bu yerdagi muhit boshqacha edi, formal kelinga ko'pchilik boshqacha qarashardi. Ular meni quvonch bilan kutib olishdi, – deydi u. – Oilamizda hamma tojik tilida muloqot qiladi. O'zim ham bu go'zal tilni asta-sekin o'zlashtirib boryapman. Turmush o'rtog'im ham shu sohada ishlaydi. 3 nafar farzandimiz bor – ikki o'g'il va bir qiz. Qaynonam Sohibaxon aya onamdek mehribon bo'lib, hozirgacha bizga nasihat qilib, farzandlarimni tarbiyalashda o'zining qimmatli maslahatlarini ayamassligidan xursandman.

U kasbimiz mas'uliyatini his qilib, bizga yaqindan yordam berib kelmoqda.

– Har bir masalada Nigora ikkimiz bir-birimizga ko'makchimiz, sohamiz mashaqqatlarini his qilganimiz uchunmi, fikrimiz ko'pincha bir joydan chiqadi. U doim mening qarorimni hurmat qiladi. Tan olish kerak, farzandlar tarbiyasida u mendan ko'ra mas'uliyatliroq, – deydi Ibrohimjon. – Jamiyatda o'z o'rningni topish uchun, avvalo, oila tinch va mustahkam bo'lishi kerak. Bu borada sohamizda boshqalarga o'rnak bo'la oladigan juftliklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Nigora taqdirning unga ato etgan tuhfalariga shukrona keltirib yashaydi. – Shu paytgacha erishgan barcha yutuqlarim uchun qaynonamga, turmush o'rtog'imga rahmat aytmoqchiman, –

deydi u. – Tinch-osoyishta hayotni muhofaza qilish yo'lida mehnat qilayotganimdan faxrlanaman.

Nigora oilada qo'li gul beka ham ekan. Ko'cha va hovli sahnida barpo etilgan mo'jaz gulzorda ayolning o'ziga xos ijodkorligi aks etib turibdi. Bo'sh vaqtlarida munchoqlardan yasagan rang-barang va chiroyli gullari uning nozik did sohibasi ekanidan dalolat berib turibdi.

O'tgan yili o'tkazilgan «Besh tashabbus» loyi-halarida g'olib bo'lgan.

Ichki ishlar organlarida matonat va sabot bilan xizmat qilib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab ishlayotgan bunday oilalar soni ko'payaversin. Biz ularning mashaqqatli va sharaflilari muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

ИЛМ ДАРФАЛАРИ

ИРОДА ВА ЗАКОВАТ МАҲСУЛИ

Юридик фанлар доктори, профессор, истеъфодаги полковник **Ҳожимурод Тўхтамуродович Одилқориев** илмий доираларда давлат ва ҳуқуқ назарияси, шунингдек, конституциявий ва халқаро ҳуқуқ соҳаларининг йирик мутахассиси сифатида танилган. Бугун етмишинчи довол қаршисида турган атоқли олимнинг умр йўллари эса ўзига хос бир мактабдир.

Ҳ. Одилқориев қирқ беш йиллик меҳнат фаолияти давомида ўзини тажрибали ва юқори малакали педагог, мамлакатимизда ва хорижда машҳур бўлган истеъдодли олим сифатида намоён этди. ИИБ Академияси бошлиғи ўринбосари лавозимида фаолият олиб борган даврида, унинг фаол кўмаги билан Академияда Докторлик диссертацияларини ҳимоя қилиш бўйича ихтисослаштирилган кенгаш очилди. 2002–2006 йилларда Кенгаш раиси ўринбосари сифатида 45 нафар изланувчининг (8 нафари юридик фанлар доктори ва 37 нафари юридик фанлар номзоди) муваффақиятли ҳимоясига катта ҳисса қўшди.

Давлат ва ҳуқуқ назарияси кафедраси бошлиғи лавозимида ишлаган йилларда эса ички ишлар органлари учун малакали мутахассислар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиб, кафедранинг касбий ва илмий салоҳияти сифат жиҳатдан сезиларли даражада ўсди.

Етук ҳуқуқшунос олим сифатида у назарий ҳуқуқ фанининг ривожланишига катта ҳисса қўшиб, ҳуқуқ назарияси соҳасида ўзининг теран билимларини намоён этди ва илмий ҳамжамият эътирофига сазовор бўлди. Хусусан, унинг илмий нашрларда ифодаланган асосий ғоя ва ҳулосалари дарслик ва монографияларда, шунингдек, мустақил

Ўзбекистоннинг кўпгина қонун ҳужжатларида ўз аксини топди. 1995 йилда докторлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилган Ҳ. Одилқориев ҳуқуқ ижодкорлиги фаолияти назарияси бўйича илмий мактабга асос солди.

Ҳ. Одилқориев бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган олти юздан зиёд илмий нашрлар ҳамда ўнлаб дарсликлар муаллифидир. Унинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (1992) лойиҳасини тайёрлаш бўйича ишчи гуруҳ таркибидаги фаол иштирокини ҳам алоҳида таъкидлаш керак. Кейинчалик «Юридик атамалар луғати», «Юридик энциклопедия», «Мустақиллик: ижтимоий-сиёсий луғат», «Конституциявий ҳуқуқ: энциклопедик луғат» каби илмий-оммабоп асарларга ҳаммуаллифлик қилди.

Ҳ. Одилқориев нафақат амалиётчи мутахассислар, балки ҳуқуқшунослик соҳасида олимлар тайёрлашга ҳам катта эътибор қаратмоқда. Ҳозирда ҳам аспирант ва изланувчиларга илмий раҳбарлик қилиб, йигирмадан зиёд юридик фанлар доктори ва номзодларини тайёрлашда давом этмоқда.

Унда истеъдодли кишиларни саралаб, уларни илмий фаолиятга жалб қилиш қобилияти бор. Шу боис Ҳожимурод ака раҳбарлигида муваффақиятли



ёш олим ва ўқитувчиларнинг янги авлоди етишиб чиқди. Ақл-заковат ва чуқур юридик билимга эга бўлган устоз талаба ва магистрантларни ўқитиш ва тарбиялаш, ёш педагог ва илмий кадрлар тайёрлаш, уларга ўзининг бой, кўп йиллик касбий тажрибасини ўргатиш учун кўп вақт ва куч сарфлайди. Шу билан бирга, у нафақат илмий раҳбар, балки назарий билимлар оламининг тажрибали йўлбошчиси, ёш олимларнинг салоҳиятини шакллантирувчи, уларни илмий изланишлар, касбий ривожланиш йўлига бошловчи устоз ҳамдир.

Профессор Ҳ. Одилқориев шунчаки устоз эмас, балки ўз тажрибаси ва билимлари билан ўртоқлашиб, ёш тадқиқотчиларнинг ижодий салоҳиятини юзага чиқаришга ёрдам берадиган доно йўлбошчидир. Олим уларда илмий изланиш, ҳуқуқшунослик муаммоларини ижодий идрок этиш кўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратади. Илмий маданият ва этиканинг юқори даражасини намоён этган ҳолда, илмий изланишни талаб қиладиган муаммони

аниқлаб, ўз шогирдларини унинг ечимига қизиқтиришга ҳаракат қилади. У ҳамиша таҳсил олувчиларда тадқиқот кўникмаларини ва танқидий фикрлашни ривожлантиришга ёрдам беради.

Унинг бугунги илмий фаолияти Ўзбекистон Республикаси ИИБ Криминология тадқиқот институтида юридик амалиётнинг энг ўткир муаммоларини ўрганишга қаратилган. У тадқиқотчи сифатидаги бой тажрибаси билан доимо ўртоқлашади, ёш олимларда касбий таҳлилий маҳорат ва малакаларни, танқидий таҳлил қилиш ҳамда асосли тавсиялар ва пухта ўйланган қарорлар ишлаб чиқиш қобилиятини шакллантиришга ёрдам беради.

Ҳожимурод Тўхтамуродовични табаррук ёши билан ҳамкасблари ва шогирдлари номидан самимий табриклаб, унга мустаҳкам соғлиқ, узок умр, ижодий зафарлар, педагогик ва илмий фаолиятида улкан муваффақиятлар тилаб қоламиз.

Илёс ТУЛЬТЕЕВ,
юридик фанлар доктори,
профессор, истеъфодаги
полковник.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

MAQSADI ULKAN SAFDOR

Zokirjon akasi – Toshkent viloyati IIBB YHXB xodimi, katta serjant Farrux Absattarovga havas qilib, o'zi orzu qilganidek egniga ichki ishlar organlari formasini kiyishga musharraf bo'ldi. Hozirda u Bektemir tumani IIOFMB JTSB PPX otryadi inspektori.

Endigina xizmatni boshlaganida unga otryadning guruh rahbari, katta serjant Bahrom Begmatov murabbiylik qildi. Uning va hamkasblarining o'g'itlariga amal qilib kam bo'lmadi.

Xususan, joriy yil boshidan buyon 3 ta – 2 ta giyohvandlik vositasi bilan

bog'liq va 1 ta o'g'rilik jinoyatini «issiq izida» fosh etishda bevosita ishtirok etdi. Shuningdek, «Tig'» profilaktik tadbiri doirasida 8 ta holatda sovuq qurollarni bemaqsad olib yurgan fuqarolarni aniqlab, tegishli tarzda qonuniy chora ko'rish



uchun tegishli organlarga topshirdi.

Safdor Z. Absattarovning kelajakdagi orzulari va maqsadlari katta. U hozirda ISFT (International School of Finance Technology and Science) institutining pedagogika va psixologiya yo'nalishida tahsil olmoqda. Oliy o'quv yurtini tamomlab, ofiser sifatida faoliyatini davom ettirish.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.

USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI



MUNOSIBLIK HAM SAODAT

Kechki payt shundoq yo'l chekkasida to'xtab turgan 20–25 yoshlardagi ikki yigitning xatti-harakatlari shu hududda xizmat olib borayotgan Yakkasaroy tumani IIOFMB JTSB PPX inspektorlari, kichik serjant O'tkir Ko'chmasov hamda safdor Sunnatilla Ochilovda shubha uyg'otdi. Xolislar ishtirokida tekshirilganida, har ikkisinin cho'ntigidan kukun ko'rinishidagi o'tkir hidli modda topildi.

– Ushbu holatni tegishli tartibda rasmiylashtirib, ashyoviy dalillarni Jinoyat qidiruv bo'limiga topshirdik, – deydi kichik serjant O'tkir Ko'chmasov. – So'ngi xulosa asosida ushbu fuqarolarning giyohvandlik vositalari oldi-sotdisi bilan shug'ullanishi ma'lum bo'ldi. Xizmatimiz asosan keng jamoatchilik orasida kechadi. Aslida bu kabi kutilmagan holatlarga duch kelishga odatlanganmiz. Bunday vaziyatlarda sergaklikni yo'qotmagan holda odamlar xavfsizligini ta'minlash, qonun buzilish holatini aniqlashda xato qilmaslikka harakat qilamiz.

– Xalqimizda «Kasalni berkitsang, isitmasi oshkor qiladi» maqoli bejiz aytilmagan, – deya suhbatimizga qo'shildi safdor Sunnatilla Ochilov. – Qonunbuzarlar xatti-harakati bilan o'zini o'zi sezdirib qo'yadi. Yuqoridagi holatda ham yigitlarning ko'zlari bejo edi. Xuddi nimanidir yo'qotib qo'ygandek, yana bizdan uzoqlashmoqchi bo'lishdi. Shundan so'ng ularga nisbatan uyg'ongan shubhalarimiz yanada oshdi.

Giyohfurushlikni kasb qilgan «uddaburonlar» bilishmadiki, qarshisida tizimda yigirma uch yil xizmat qilgan O'tkir Ko'chmasovdek ustoz, uning yonida esa o'n ikki yildan buyon munosib shogird sifatida faoliyat yuritayotgan safdor Sunnatilla Ochilovdek kasbini puxta o'zlashtirgan fidoyi xodimlar turardi.

– Otam iste'fodagi mayor Rahmatilla Ochilov, amakim iste'fodagi kichik serjant Ismatilla Ochilovlarga havas ortidan

ichki ishlar organlarida xizmat qilish ishtiyoqi uyg'ongan, – deydi Sunnatilla. – Niyatim xolis ekan – xizmatga kirdim. Ustoz borasida ham omadim chopdi – O'tkir Ko'chmasovdek nihoyatda bag'rikeng inson ko'magida hozirgacha kasbiy tajribamni oshirib kelyapman. Ular bilan yonma-yon ishlash yuragimda doim ishonchni oqlash tuyg'usini kuchaytiradi.

– Uquvli, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan, ziyrak yoshlarning shijoatidan ko'zimiz quvnaydi, – deydi O'tkir Ko'chmasov. – Yaqinda «tashvish tugmasi» orqali navbatchilik qismiga yong'in bo'yicha xabar kelib tushdi. Biz tezda voqea joyiga yetib bordik. Olov o'z nomi bilan tilsiz yov, uni jilovlashda birdamlik kerak. Men fuqarolarning xavfsizligini ta'minladim. Sunnatilla esa avtoulavlar harakati xavfsizligini ta'minlash borasida ehtiyot choralarini amalga oshirdi. Boshqa sohaviy xizmat xodimlari tomonidan favqulodda ko'rilgan choralar tufayli yong'inni tezda jilovlashga erishildi. O'sha vaziyatda Sunnatilla o'zini yo'qotib qo'ymay tez, aniq va to'g'ri harakat qilganidan xursand bo'ldim.

Ha, ustozning shogirdidan mamnunligi, shogirdning esa ustozidan minnatdorligi, o'zaro hamfikirlikda ishlayotgani qanchalar yoqimli. Har ikkisida ham munosiblik saodat ekanligi hayotiy haqiqat.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

30-IYUL – XALQLAR DO'STLIGI KUNI

MILLATIMIZNING
BEBAHO BOYLIQI

Mehmondo'stlik, qalb saxovati va bag'rikenglik – xalqimizga xos fazilatlar. Yaqin o'tmishda o'z yurtidan majburan ko'chirilgan, badarg'a qilingan necha elat va millat vakillariga xalqimiz bag'rini ochdi, eng og'ir damda ularga yordam qo'lini cho'zib, bir burda nonini baham ko'rdi. Koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatarlar bu bag'rikeng zaminda o'zining ikkinchi Vatanini topdi.

Ayniqsa, Ikkinchi Jahon urushi davrida boshpanasiz qolgan minglab turli millat vakillarini quchoq ochib kutib olgan O'zbekiston xalqi o'zining bag'rikengligi va mehmondo'stligini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. 300 mingdan ortiq yetim bolalarni o'zbek oilalari o'z farzandlaridek qabul qildi.

Do'stlik degan bir qarashda oddiy, ammo purma'no tushuncha ortida, aslida, insonning eng yuksak axloqiy fazilatlar, o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar, shaxsiy hamdardlik, mehr-muhabbat, samimiylik, o'zgalarga ko'maklashish, yaxshilikka xayrixohlik kabi ma'naviy jihatlar, ezgu g'oyalar mujassam. Shuningdek, u tinchlikni ta'minlash, madaniy xilma-xillikni asrab-avaylash va qo'llab-quvvatlashda muhim ko'prik vazifasini bajarib, jahon hamjamiyatidagi hamjihatlik, hamfikirlik va samimiy muloqot, xalqlar, mamlakatlar, madaniyatlar va shaxslar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi qaroriga muvofiq, 30-iyul butun dunyoda Xalqaro do'stlik kuni sifatida nishonlab kelinadi. O'zbekistonda ushbu sana Xalqlar do'stligi kuni deb belgilangan va mamlakat miqyosida bayram qilinadi.



An'anaviy «Do'stlik» festivali bu yil 25–31-iyul kunlari mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilayotir. Toshkent shahri va respublikamizning barcha hududlaridagi tomosha maydonlarida, so'lim xiyobonlar va bog'larda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xalqlar, millatlar – butun jamiyatning turli qatlamlari va tuzilmalari o'rtasidagi hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va do'stlikni mustahkamlash va yanada rivojlantirishdan iborat.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'zbek xalqi o'z tarixi davomida har doim boshqa millat va elat vakillariga nisbatan bag'rikeng bo'lgan. Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik bizning asosiy boyligimiz sanalgan. Biz bunday bebaho boylik bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.

▶ **НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН – НОВЫЕ ОРГАНЫ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ**

СОЗДАНЫ УСЛОВИЯ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ СЛУЖБЫ

На днях состоялась сдача в эксплуатацию здания отдела охраны Куштепинского района Управления охраны УВД области.

Двухэтажный административный корпус оснащен современным оборудованием. В здании размещены около двадцати рабочих кабинетов, спортивный зал, медицинский пункт, кабинет психологической разгрузки, электронный тир, библиотека и уголок духовности. Все это призвано способствовать повышению профессионального уровня и морально-психологического состояния сотрудников.

По случаю открытия состоялось награждение сотрудников, отличившихся в обеспечении охраны объектов, борьбе с преступностью и предупреждении правонарушений.

– Здесь созданы все условия для эффективной службы, – отметил ветеран органов внутренних дел майор в отставке Анваржон Мирзаев. – Уверен, молодые сотрудники продолжают добрые традиции и добьются высоких результатов.

Абдусит СИДИКОВ,
соб. корр.

Ферганская область.



▶ **АСПЕКТ ПРОФИЛАКТИКИ**

ЗОНА ПОВЫШЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Железнодорожные объекты, будь то вокзалы, станции, участки путей, – зона повышенной ответственности. Именно поэтому целенаправленная профилактическая работа здесь критически важна.

— В рамках второго этапа оперативно-профилактического мероприятия «Безопасная и здоровая страна» особое внимание уделяем повышению осведомленности населения, особенно молодежи и несовершеннолетних, о правилах безопасного поведения на железнодорожных объектах, укреплению взаимодействия с общественностью. Увеличена плотность патрулирования. В сотрудничестве с АО «Ўзбекистон темир йўллари» осу-

ществляем совместную деятельность по обеспечению исправности систем видеонаблюдения, освещения, ограждений и других элементов инфраструктуры, – говорит старший инспектор группы профилактики правонарушений отделения обеспечения безопасности на станции «Тукимачи» Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона капитан Жонибек Номозов.



За подразделением закреплены также пять махаллей Ташкента – Олтин водий, Биродарлик, Заминобод, Кушбеги, Башлык.


– Они расположены вдоль путей, – продолжает наш собеседник. – Систематически встречаемся с жителями, напоминаем о необходимости соблюдения правил, о мерах, принимаемых в отношении нарушителей. Недавно такие встречи прошли в махаллях Заминобод и Олтин водий. Житель махалли Заминобод А. Г. осуществлял выпас овец близ путей, что недопустимо. Поскольку предупреждения не возымели действия, он был привлечен к ответственности по ч. 2 ст. 113 КоАО. Данный

факт доведен до всех махаллинцев. Кроме того, им еще раз напомнили, что переходить пути следует в установленных местах, не разрешать детям «развлекаться» близ магистрали – это может закончиться трагически. Среди населения распространяются информационные буклеты. Высокую эффективность при проведении рейдов, патрулировании демонстрируют рядовые Равшан Юлдашев, Ориф Рахмонов, Нуралижон Мирзабаев и другие.

Оперативно-профилактические мероприятия «Безопасная и здоровая страна» продолжают.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.
Фото Икром ХАСАНОВА.

СЎЗ ЗАРГАРЛАРИ



ИККИ ХАЛҚНИНГ

Яқинда расмий ташриф билан Озарбайжонда бўлган давлатимиз раҳбарини Президент Илҳом Алиев бошчилигидаги ҳукумат аъзолари ва озар халқи кўтаринки руҳда кутиб олгани, табиати ҳам, таровати ҳам юртимиз билан бирдек ушбу ўлкада кўп тармоқли «Ўзбекистон боғи»га тамал тоши қўйилиши ҳамда тили қондош, ўзи жондош икки халқ келажагини ўйлаб амалга оширилиши режалаштирилган бошқа кўплаб тадбирлар ҳаёлим уфқларини ўрта асрларга қадар кенгайтиргандек бўлди, гўё...

«НИЗОМИЙ БОЛИДАН
ҲОЛВО ПИШИРДУМ»

Гарчанд, бу сўзлар XIV асрда яшаб ўтган, Низомий Ганжавийнинг шоҳ асари «Хамса» таркибидаги «Хисрав ва Ширин» достонини эркин тарзда ўзбек тилига ўгирган Қутб Хоразмийга тегишли бўлса-да, кейинчалик ҳам бу ишни кўплаб ижодкорлар такорлаган. Ва уларнинг ҳар бири икки халқ ўртасидаги дўстлик ва биродарлик ришталарини тобора мустаҳкамлаган.

Агар озар халқининг фахру ифтихорига айланган Низомий Ганжавийнинг XII асрда «Хамса»ни яратиши қанчалик ноёб ҳодиса саналган бўлса, орадан уч юз йил ўтиб, Алишер Навоий қаламига мансуб «Хамса»нинг дунёга келиши ўзбек маданий оламининг буюк воқеаси бўлди.

Нафсиламрини айтганда, тарих силсиласида саккиз

аср мобайнида Низомий болидан ҳолво пиширган адибларнинг ҳар бири ўз халқининг тарихи, адабиёти ва санъати самосида муносиб ўрнига эга юлдузлар бўлиб қолди.

ГАНЖА ЭЛИДАН
ЎЗБЕК ЕРИГА

Бир замонлар ҳазрат Навоий буюк сўз заргари Низомий Ганжавийдан илҳомланиб, ўзининг шоҳ байтларини битган бўлса, орадан беш аср ўтиб, озар халқининг нафосат намояндалари ўзбек диёрини ўзларига ошён қилди. Улар нафақат Ўзбекистонни ўз Ватани деб билишди, балки ўзбек адабиёти ва адабиётшунослиги, санъати ва маданиятини юқори чўққиларга олиб чиқишда муносиб ҳиссала-

рини қўшишди.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби, ўзбек адабиётининг инжа



билимдони, нуктадон олим, ҳозирги Ўзбекистон миллий университети ва Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университетида ўттиз йил давомида ёшларга сабоқ берган, миллий адабиётимиз равнақига му-

носиб ҳисса қўшган бетакрор шоир-ёзувчилар, етук мунаққид ва адабиётшунослар авлодининг етишиб чиқишига хизмат қилган мохир педагог, филология фанлари номзоди, доцент Мақсуд Шайхзода ана шундай инсонлардан бири эди.

Бундан салкам юз йил олдин фалакнинг гардиши билан Ўзбекистонга келиб қолган Мақсуд Шайхзода ўзини бир дам бўлсин, бу юртда бегона ҳис қилмади. Чунки унинг атрофида доимо чинакам, содиқ дўстлари – Ойбек, Фафур Фулом, Ҳамид Олимжон, Комил Яшин, Миртемир, Шукур Бурхонлар бор эди. Шунинг учун ҳам ёниб ижод қилди. Натижада «Ўн шеър», «Ундошларим», «Учинчи ки-

Достон жанрида ҳам самарали қалам тебратган шоир «Мерос», «Тупроқ ва ҳақ», «Овчи қиссаси», «Искандар Зулқарнайн», «Ўн бирлар», «Аҳмаджоннинг ҳикматлари», «Учинчи ўғил», «Нурмат отанинг туши» сингари лиро-эпик асарлар ёзди. Айниқса, адибнинг ижодий балоғатидан далолат берувчи асарлардан бири, қадимий ва айни чоғда замонавий Тошкент шаҳрига бағишланган «Тошкентнома» лирик достони унинг достонлари ичида энг баркамол бўлиб, унда шоир шахсиятининг ўзига хос қирралари анча ёрқин намоён бўлган.

Шайхзода кўпқиррали истеъдод соҳиби эди. У шеърлар ва достонлар билан бирга, жуда юксак бадиий қувватга эга бўлган драмалар ҳам яратди. Умрининг сўнгида ёзишга киришган, лекин тугатиб улгурмаган «Беруний» драматини ҳисобга олмаганда ҳам, унинг «Жалолиддин Мангуберди» ва «Мирзо Улуғбек» драмалари аллақачон халқимизнинг бадиий мулкига айланиб қолди.

МУМТОЗ МУҲАББАТ

Домла Шайхзода юксак илм эгаси эди. Айниқса, у ўзбек мумтоз адабиётини чуқур биларди. 1941 йилда Тошкентда нашр этилган «Гениал шоир» тўплами адабиётшунос олимнинг Навоий ижодига оид илмий мақолаларидан ташкил топ-

ҲАФТА ҚАҲРАМОНИ

ЁШЛИК ҚАНОТИДА МАСЪУЛИЯТ САРИ

Катта лейтенант Нодирбек Ҳайитов 2021 йилда ИИБ Академиясини тамомлаб, фаолиятини Самарқанд шаҳар ИИОФМБ 6-сонли Ички ишлар бўлими Жиноят қидирув гуруҳи тезкор вакили лавозимида бошлаган. Хизмат фаолияти давомида устозлар ва ҳамкасблар ёрдамида тажриба тўплаб, касбий маҳоратини оширишга ҳаракат қилган.



Нодирбек Ҳайитов яқинда Самарқанд вилояти Нуробод тумани ИИБ 2-сонли Ички ишлар бўлини маси бошлиғи лавозимига тайинланди. Отаси Қодир аканинг, онаси Садоқат опанинг «Ўғлим, касбингни сев, қасамёдингга содиқ бўл», – деган ўғитларига ҳамиша амал қилиб келяпти. Бугун унинг меҳнати, касбига садоқати ўз мевасини берди.

Унинг учун хизмат – шараф, раҳбарлик – масъулият демакдир. «Ҳар бир фуқаро хотиржам яшаши. тинч ухлаши учун биз куну тун бедор бўлишга тайёр туришимиз керак», – дейди Нодирбек. Қалби ғайрат-шижоатга тўла, кўзлари ёниб турадиган, қадамидан ўт чакнайдиган, юрт хизматига камарбаста бўлишга шай Нодирбек Ҳайитов сингари ёш раҳбарлар ички ишлар органлари соҳасининг келажагини белгилайдиган юрт фарзандларидир.

– Ундан жамоанинг, қолаверса, нурободликларнинг умиди катта. Чунки Нодирбекда ташкилотчилик, ҳалоллик, фидойилик хислатлари мужассам. Унинг қалбида Ватанга муҳаббат жўш уриб турибди, – дейди вилоят ИИБ бошлиғи ўринбосари, ММИ ва КБТХ бошлиғи, подполковник Умид Ўтаев.

Ёш раҳбарнинг унга ишониб топширилган жамоа билан биргаликда, аҳоли осойишталигини таъминлашдек эзгу мақсад йўлида бирлаштириб, бу умидларни оқлашига ишонамиз. Ўйлаймизки, нурободликлар ундан мамнун бўлишади.

Умида МАМАДАЛИЕВА,
ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.



СЕВИМЛИ ШОИРИ

ган. Навоий шеърятининг бу чуқур илмий тадқиқи навоийшуносликда ҳамisha алоҳида ўрин эгаллаб қолади.

Шайхзода Навоий маҳоратини, унинг санъаткорлигини теран ўрганишни бошлаб берган ўткир тадқиқотчи эди. Устознинг юртимиздаги етакчи олийгоҳларда узоқ йиллар давомида ўзбек адабиёти тарихидан ўқиган маърузалари, махсус курслари ҳам мумтоз адабиётимизга бўлган улкан муҳаббатнинг инъикоси эди.

У узоқ йиллар давомида гениал ўзбек шоири ва мутаффакири Алишер Навоий ижодини севиб ўрганди, қалб меҳри билан битилган мақола ва рисоаларида бу буюк даҳога бўлган юксак ҳурмати ва муҳаббатини катта самимият, илмий теранлик билан баён қилди. Шайхзода нафақат Навоий, балки Бобур, Огаҳий, Амирий, Нодирабегим, Муқимий, Завқий, Фурқат каби мумтоз шоирлар ижодини ҳам жиддий ўрганган ва ўз илмий тадқиқотларини доимий равишда эълон қилиб борган.

Истеъдодли шоирнинг жаҳон адабиёти мумтоз адибларининг асарларини ўзбек тилига таржима қилишида ҳам ана шу буюк муҳаббатни кўриш мумкин. Жумладан, Шекспирнинг «Ҳамлет» ҳамда «Ромео ва Жульетта» асарлари ўзбек театрлари сахнасида Шайхзода таржимасида сахналаштирилди. Пушкин, Лермонтов, Байрон шеър-

ларини ўзбек ўқувчисига илк бор тақдим этган шоирлар авлоди ичида Шайхзода ҳам бор.

ҚАТАҒОН МАШИНАСИ

Ўтган асрнинг 30-йилларида ишга тушган ва кейинги йилларда тинимсиз ишлаб турган қатағон машинаси Мақсуд Шайхзодани ҳам четлаб ўтмади. Айнан 50-йиллар бошида нуктадон шоирни мутлақо асоссиз равишда қамоққа олишади ва у 25 йилга сургун қилинади. Сталин вафотидан сўнг тухмат билан ноҳақ қамалганларнинг иши қайта кўрилиши асносида кўпгина фидойи зиёлиларимиз қатори, Шайхзода ҳам оқланиб чиқади. Лекин беш йиллик қамоқхона азоблари натижасида шоирнинг соғлиғи жуда ёмонлашиб қолганди. Шунга қарамай, умрининг охиригача 10 йил давомида баланд уйнинг энг юқори қаватида яшашга мажбур бўлди. Ана шундай оғир шароит ва ҳасталикда ҳам ҳаётдан сира нолимай сўнгги нафасигача ижод қилишдан тўхтамади. Энг муҳими, бошидан қанчадан-қанча мусибатли кунлар ўтган бўлмасин, у ҳеч қачон зорланмаган. Унга хиёнат қилган, уни азоб уқубатларга, жиддий ҳасталикларга дучор қилганлар ҳақида ҳеч қаерда, ҳеч нарса демаган. Шайхзода ўзининг инсоний фазилатларига содиқ қолиб, доимо хайрихоҳлик ва олижаноблик хислатлари билан юксалиб яшади.

«ТОЛЕ ДОИМ ЭРКАЛАМАГАН» АДИБ

Кўпинча ижодкори сийланмаган асарнинг тақдири ҳам шўришлардан холи бўлмайди. Буни «халқимизнинг меҳнат қаҳрамонлиги, кураш ва жанг, озодлик ва дўстлик, бахт ва алам, юртнинг гўзал манзаралари ва инсоннинг маънавий жамоли менинг қаламимга ошно, дилимга мазмун бўлиб келди» деб ёзган Мақсуд Шайхзода ва унинг шоҳ асарларидан бири бўлган «Жалолиддин Мангуберди» трагедияси мисолида ҳам кўриш мумкин.

«Миллий фирқа» ташкилотига аъзо бўлиб, мусовотчилар ҳаракатида фаол



қатнашгани учун 1928 йили ҳибсга олиниб, Тошкентга сургун қилинган шоирни шўро ҳукумати Ўзбекистонда ҳам таъқиблар ва таҳқирлардан бенасиб қолдиргани йўқ.

Иккинчи жаҳон уруши айна қайноқ паллага кирган 1944 йилда ёзилган

«Жалолиддин Мангуберди» трагедиясида ўз юртининг озодлиги ва мустақиллиги учун мўғул истилочиларига қарши курашган сўнгги Хоразм шоҳининг жанговар жасоратини тарихан аниқ ва ҳаққоний тасвирлангани Ойбек ва Фафур Фуломлар томонидан юксак баҳоланган. Бироқ 1946 йилгача драмадан айрим парчалар «Армуғон» тўпламида чоп этилгани инobatга олинмаса, кейинги 43 йил давомида асар ҳақида ломим дейилмади. Ўтмишни идеаллаштирган деган сиёсий айб қўйилиб, сахнадан олиб ташланган асар ортидан Шайхзоданинг ўзи ҳам қамоққа равона бўлди. Қизиғи, муаллиф маҳбустликдан озод этилганига қарамай, мусодара қилинган асар қўлёзмаси дра-

юмди. Вафотидан йигирма йил ўтгач, «Жалолиддин Мангуберди» биринчи марта ўзбек тилида ёзувчининг «Боқий дунё» китобида тўлалигича босилиб чиқади. Орадан яна ўн йил ўтгач, Вазирлар Маҳкамасининг «Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллигини нишонлаш тўғрисида»ги қарори Мақсуд Шайхзоданинг халқимиз тарихига, хусусан, Жалолиддин Мангуберди тақдири ва курашига одилona ёндашганлиги, тарихий ҳақиқатни ҳимоя қилганлигини юз фоиз тасдиқлади.

ХУЛОСА ЎРНИДА

Шайхзода қисқа ҳаёт кечирди – ижоди энг гуллаган пайтда, айна ширага тўлган вақтда 60 ёшга ҳам тўлмай, 1967 йил 19 февраль кuni узоқ давом этган ҳасталикдан сўнг оламдан кўз юмди. У Тошкентнинг Форобий қабристонида дафн этилган.

Бир замонлар Низомий таваллуд топган Ганжа вилоятида туғилган, фалакнинг гардиши билан ўзбек тупроғига келиб қолиб, завқ-шавқ билан ижод қилган, замонавий ўзбек адабий тили ва адабиётига салмоқли ҳисса қўшган бу улуг инсон ҳақида ҳали жуда кўп ва ҳўб ёзиш мумкин эди. Лекин мақоланинг хулосасини ҳам файласуф шоирнинг ўзи айтди-қўйди:

*Умрлар бўладики,
Тиригида ўликдир,
Умрлар бўладики,
Ўлган одам тирикдир.*

Темир ҚУРБОН.

КАСБ ФИДОЙИСИ

УНДАН АҲОЛИ МАМНУН

«Хўжакент» маҳалласидаги Самадовлар (воқеа иштирокчиларининг исм-шарифи ўзгартирилди) хонадонида ўзларига таниш бўлган Бахтиёр исмли уста ишлаётган эди. Уй эгалари унга ишонгани боис хотиржамликка берилишади. Кунлардан бир кун эса ўша хотиржамлик қимматга тушиб, катта миқдордаги пуллари йўқолгани учун «102»га қўнғироқ қилишга мажбур бўлишади.

Чақирув орқали ҳудуд профилактика катта инспектори хонадонга етиб келиб, тезлик билан вазиятнинг тагига етди. Бахтиёр ўғрилиққа қўл урганди. Унинг қилмиши фош қилиниб, қонун ҳукмига ҳавола этилди.

Қуйичирчиқ тумани ИИБ ХПБ профилактика катта инспектори, катта лейтенант Жаҳонгирхўжа Эргашев 5 йилдан буён ички ишлар органларида. У «Хўжакент» маҳалласига бевосита ва яна 3 та маҳаллага катта инспектор сифатида бириктирилган.

Дастлабки хизмат фаолиятини тумандаги «Машраб» маҳалласида олиб борган лавҳамиз қаҳрамони, мана, уч йилдирки,

хўжакентликлар осойишталигини таъминлаб келмоқда. Унинг фаолиятидан аҳоли мамнун.

Маҳалла ҳозир «сарик» тоифада бўлиб, 2800 нафардан ортиқ фуқаро истиқомат қилади. Аҳоли асосан деҳқончилик ва чорвачилик билан машғул. 112 киши хорижда, 4 нафар шахс пробация назорати остида.

– Отам Зоидхон Тайлоқов истеъфодаги майор. Икки акам ҳам ўқимишли, зиёли инсонлар. Уларнинг қўллови, мени тушунишлари жуда қўл келади. Оиланг қўллаб-қувватласа, чарчоғинг ҳам билинмас экан, – дейди катта лейтенант Ж. Эргашев.



Профилактика катта инспекторига бириктирилган маҳаллаларда 10 минг нафардан ортиқ фуқаролар қайд этилган. Тоифасига кўра, маҳаллаларнинг 3 таси «сарик», биттаси «яшил». Фидойи ходим тез орада барча маҳаллалар «яшил» тоифада бўлишини кўзлаб астойдил ҳаракат қилмоқда.

Аброр ПОЁНОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.



МОЛОДЕЖЬ – НАШЕ БУДУЩЕЕ

ОТКРЫВАЯ НОВУЮ ГЛАВУ

На днях состоялся выпуск курсантов Московского университета МВД России имени В.Я. Кикотя. Сотни курсантов, прошедших годы усердной учебы и подготовки, получили долгожданные дипломы о высшем образовании, открывая новую главу в своей жизни.



Среди этих молодых и целеустремленных специалистов – шесть наших соотечественников, которые с гордостью представляли Узбекистан. Дипломы им вручил заместитель Директора БКБОП МВД Республики Узбекистан полковник Бахромжон Ханазаров. Нам посчастливилось пообщаться

с выпускниками, и их впечатления полны гордости, благодарности и предвкушения будущих свершений. Их успешное окончание одного из ведущих полицейских вузов СНГ является важным шагом в укреплении правопорядка и сотрудничества между нашими странами.



Лейтенант Достон Расулов, обладатель диплома с отличием:

— Мой дедушка и родители посвятили многие годы службе в ОВД. Пятилетнее обучение позволило мне стать квалифицированным специалистом по защите информации, и я с нетерпением жду возможности применить эти знания в органах внутренних дел Республики Узбекистан.

Университет предоставил все необходимые условия для глубокого освоения теоретических и практических навыков. Профессорско-преподавательский состав делился не только знаниями, но и бесценным жизненным опытом, что позволило мне активно участвовать в научных конференциях, занимать призовые места и получать заслуженные награды.

Мои ожидания от предстоящей службы весьма оптимистичны. Во время преддипломной практики я уже успел познакомиться с коллективом и освоить базовые навыки, необходимые сотруднику ОВД.



Лейтенант Артур Лукманов:

— Обучение по специальности «Техническая защита информации» дало мне обширные знания, которые я намерен применять в служебной деятельности в Узбекистане. Университет предоставил множество практических занятий и тренировок. Я стремлюсь работать в оперативных подразделениях, но готов служить там, куда направит Родина. Считаю, что это станет ценным опытом для моего будущего.

Молодым курсантам из Узбекистана, которые планируют обучаться в России, я бы посоветовал хорошо учиться и вести себя достойно, ведь они представляют свою страну.

Беседовала Азиза БОХОДИРОВА, майор.

ФОТО ИЗ АРХИВА

На снимке: инспектор подразделения дорожно-патрульной службы младший сержант Людмила Мартыанова проверяет документы у водителя.



Ташкент, 1983 год.

ПРИТЧИ

МУДРЕЦ И КАМЕНЬ

Однажды путник споткнулся о камень и проклял его. Мудрец, шедший рядом, поднял камень, отряхнул от пыли и поставил на видное место, чтобы другие не спотыкались. «Все зависит от того, как ты относишься к препятствиям», — сказал он.

КУВШИН С ВОДОЙ

Человек нес дырявый кувшин, жалуясь на протечки. Но по пути, где капала вода, выросли прекрасные цветы. «Даже твои недостатки могут принести красоту», — сказал ему прохожий.

РЕКА И РУЧЕЙ

Ручей спешил влиться в реку, боясь потерять себя. Река ответила: «Вливаясь в меня, ты не потеряешь себя, а станешь частью чего-то большего и мощного». В единстве — сила.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

KITOB – TAFAKKUR XAZINASI

Kitobning inson hayoti, faoliyati va kelajagi uchun ahamiyati beqiyosligi xususida ta'rif-u tavsiflar, fikr-mulohazalar juda ko'p. Chunki u inson ma'naviyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manba bo'lib, kitobxon odam bilimi, fikrlashi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Mutaxassislarning qayd etishicha, mutolaa asabni tinchlantiradi, miya faoliyatini yaxshilaydi, tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi, tinglash, ijodkorlik va fikrlash qobiliyatlarini yuksaltiradi. Muhimi, maqsadni anglashga, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, insonni go'zallashtiradi, uni yaxshilik qilishga undaydi. Hatto birga kitob o'qish ota-ona va bolalarning o'zaro munosabatini mustahkamlaydi.

Yuqorida qayd etganimizdek, mutolaa kishini fikrlashga, tafakkur qilishga undaydi. Zero, jahon adabiyotining buyuk namoyandasi, Nobel mukofoti sovrindori Hermann Hesse «Biz o'zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda anglash uchun o'qishimiz kerak», deya bejiz ta'kidlamagan. Sharq donishmandlaridan biri esa «Fikr senga yaxshi va yomon amallaringni ko'rsatib turadigan ko'zgudir», degan.

Fikr va tafakkursiz hech bir inson oldinga siljmaydi. Shuning uchun yurtimizda kitob o'qishni targ'ib qilish, aholining kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2017-yil 13-sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda 2019-yil 7-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari mazkur sohani tamomila yangi rivojlanish bosqichiga o'tishiga huquqiy zamin bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi qarori bilan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi. Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi:

– aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash;

– milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalari tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

– kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish;

– kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish



va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish;

– aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxona-chi kadrlar salohiyatini oshirish;

– xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi qator vazifalar belgilangan.

2023-yil 28-noyabrda Prezidentimizning «Yoshlar uchun ming kitob» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi yana bir qarori imzolandi. Qarorda tilga olingan «Yoshlar uchun ming kitob» loyihasi yosh avlodning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi jahonda mashhur 1000 ta kitobni tanlab olib, o'zbek tiliga tarjima qilishga qaratilgani bilan ahamiyatli, albatta. O'tgan vaqt mobaynida Yoshlar ishlari agentligi mas'ulligida bu borada e'tiborga molik ishlar amalga oshirilganini ham alohida ta'kidlash joiz.

Shuningdek, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida asosiy maqsadlar sifatida yosh kitobsevarlar sonini besh millionga yetkazish, har yili 100 ta badiiy asar va bolalar hamda o'smirlar uchun 50 ta kitob yaratish, «O'zbek adabiyoti xazinasidan» ko'p jildlik va «Jahon bolalar adabiyoti durdonalari» 100 jildligini o'zbek tilida nashr etish hamda qariyb 40 millionga yaqin kitob fondini raqamlashtirish belgilangani bu soha davlatimiz taraqqiyotining bosh maqsadlaridan biri ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bundan tashqari, har yili «Besh

tob yarmakalari tashkil etilmoqda. Kitobxonlik tanlovlari, viktorina va intellektual o'yinlar o'tkazilmoqda.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbimiz.

KITOB OLING

O'tchopardan kimxob oling,
Ne bo'lsa – behisob oling,
Ammo qaytar chog'ingizda
Bittagina kitob oling.

O'rikzordan koshin oling,
Sirg'alidan moshin oling,
Jaholatning boshin oling,
Bittagina kitob oling.

Yuz ming turlik sharob – sizga,
Palov – sizga, kabob – sizga,
Oh chekurman qarab sizga,
Bittagina kitob oling!

Siz ulug'siz qorin bilan,
Qazi-qarta, norin bilan,
Dilga ham bir azob oling,
Bittagina kitob oling.

Yeng shimarib «xo'sh» degaysiz,
Osh-u non-u go'sht degaysiz.
Ma'rifat deb savob oling,
Bittagina kitob oling.

Do'kon qiling, market qiling,
Uylarni ham parket qiling,
Siz ham bir iztirob oling –
Bittagina kitob oling.

Umr o'tar – yelib qoling,
Yulib qoling, olib qoling,
Oqar suvdan xitob oling,
Bittagina kitob oling.

Kimlar qolar izingizda,
Tik qarolmay yuzingizga?
Avval o'g'il-qizingizga
Bittagina kitob oling.

Xudo xayringizni bersin,
Yana umringizni bersin,
Uyingizga oftob oling –
Bittagina kitob oling.

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri.



Maqolani qoraqalpoq
tilida ushbu
QR-kod orqali
o'qishingiz mumkin.

UMR DAFTARIN VARAQLAGANDA...

«IKKI XOTIN, BIR ER...» yoki yetti yillik jinoyat haqida

Iste'fodagi podpolkovnik Anvar Musayev bosib o'tgan yo'l o'ta murakkab. U asli jizzaxlik, ikki yoshligida ota-onasi Sirdaryo tumaniga ko'chib kelishadi, shu yerda o'rta maktabni muvaffaqiyatli tugatadi. Toshkent davlat irrigatsiya va mexanizatsiya institutini 1971-yilda tamomlaydi.

Dastlabki ish faoliyatini Sirdaryo tumanidagi «Pravda» kolxozida injener-mexanik lavozimida boshlagan Anvar akaga yoshlikdagi orzusi sira tinch qo'ymasdi. Oradan 4 yil o'tgach, ichki ishlar idoralariga hujjat topshiradi. Muta-xassisligidan kelib chiqib, uni iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor vakil lavozimiga ishga olishadi.

1984-yili Toshkentdagi Oliy harbiy militsiya maktabini muvaffaqiyatli tamomlagan A.Musayevni Sirdaryo tumani IIB Davlat mulki va xo'jaligini muhofaza qilish bo'limi boshlig'i etib tayinlashadi. Bu orada u Moskvadagi Oliy militsiya maktabining bir yillik kursida tahsil oladi.

Baxt shahar IIB boshlig'i lavozimidagi faoliyatining dastlabki

paytlarida shahar atrofidagi ayrim joylarga lo'li, moldovan millatiga mansub aholi kelib o'rtnashgan edi. Ular orasida jinoyatchilar ham talaygina bo'lib, bu kriminogen vaziyatga ta'sir ko'rsatardi. Anvar Musayev boshchiligidagi olib borilgan bir necha yillik qattiq kurashlar natijasida jinoiy to'dalar tugatildi.

Qahramonimizning bu yutuqlari rahbariyat e'tiborini tortdi. Uni yangi tashkil etilgan Yangiyer tumani IIBga, boshliqning birinchi o'rinbosari lavozimiga o'tkazishdi. Mas'uliyatli xodim bu yerda ham o'zini ko'rsatdi. Uning favqulodda qobiliyatiga egaligi, sinchkovligi va keng tafakkuri og'ir jinoyatlarni ochishda, ayniqsa, o'ttiz yoshida sirli ravishda yo'qolgan erkakning qotillarini topishda juda qo'l keldi. U Yangiyer tumani IIB JQB xodimasini eri yo'qolgan ayol davrasiga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Suhbat orasida ayolga dugonalaridan biri erini nega izlamayotganini so'raydi. Shunda ayol «uni tinchitganmiz», deb javob beradi.

Haqiqatan ham, qotillikni marhumning turmush o'rtog'i singlisining eri bilan birga sodir etgan ekan. Ma'lum bo'lishicha, ayol kuyovi bilan don olishib yurgan,



bundan eri xabar topgach, o'rtada janjal yuzaga kelgan. Natijada er imi-jimida bo'g'ib o'ldiriladi. Anvar Musayevning xatti-harakati tufayli ushbu jinoyat fosh qilinadi.

Yeti yil davomida ochilmagan qotillik jinoyatining fosh etilishi ham katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Yangiyer shahrida yashovchi o'ttiz yoshlardagi fuqaro yetti yil oldin sirli ravishda yo'qolgan edi. Lekin u hamon dom-daraksiz, olib borilgan tergov-surishtiruv ishlari natija bermaydi. Jinoyat ishi qaytadan

faollashtirilib, tezkor qidiruv ishlarini yuritish Anvar Musayevga yuklatiladi. Tajribali izquvar o'ldirilgan erkakning Farg'onada yana bir xotini bo'lganini aniqlaydi. U vodiydagi ayolidan tug'ilgan o'g'lini uylantirish niyatida avtomashinasini sotadi. Buni bilib qolgan Yangiyerdagi xotini esa o'g'liga nima qilib bo'lsa ham, otasining qo'lidagi katta miqdordagi pulni olishni buyuradi. Shu tariqa, ota o'z farzandi va xotini tomonidan o'ldirilib, yashirincha ko'mib yuboriladi. Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqadi, deganlaridek, aybdorlar rad etib bo'lmas dalillar oldida ayblarini tan olishga majbur bo'lishadi.

Podpolkovnik Anvar Musayev 1999-yilda nafaqaga chiqquniga qadar Guliston shahar IIB boshlig'ining o'rinbosari, viloyat IIB Shtab boshlig'ining o'rinbosari kabi qator mas'uliyatli lavozimlarda ishladi. Ayni paytda u keksalik gashtini suryapti. O'nlab nevarachevaralarning sevimli bobosi. Mahalladoshlari to'y-ma'rakalarda hurmatini joyiga qo'yib qadrlashadi. O'zi esa bosib o'tgan sharaflari hayot yo'lidan faxrlanadi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

«XAVFSIZ VA SOG'LOM YURT»

«GULISTON»GA OSOYISHTALIK YARASHADI

Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2021-yilda Bag'dod tumanining dasht hududlarida 66 ta ko'p qavatli uydin iborat kichik shaharcha qad rostlagan edi. Ushbu shaharchada «Guliston» mahalla fuqarolari yig'ini tashkil etilib, aholining baxtli va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan barcha infratuzilmalar barpo qilindi.

Jumladan, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oilaviy poliklinika, kutubxona, madaniyat saroyi va 10 dan ziyod savdo do'konlari ishga tushirildi. Aholini ish bilan ta'minlash maqsadida issiqxonalar uchun yer ajratilib, «Muruvvat» sanoat zonasi tashkil etildi. Qisqa fursatdayoq bir qator oilaviy korxonalar faoliyat boshladi. Natijada bu yerdagi shart-sharoitlarga havas qilib, mahallaga 1468 ta oila ko'chib keldi. Hozirda shaharchadagi 1682 ta xonadonda 3310 nafardan ziyod fuqaro istiqomat qilmoqda.

Hududda jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aholining tinch va farovon hayotini ta'minlash maqsadida o'sha yiliyoq zamonaviy huquq-tartibot maskani tashkil qilingan edi. Mahallaga kirib keladigan 5 ta asosiy ko'cha va eng gavjum joylarga 62 ta kuzatuv kemarasi o'rnatilib, ulardan 25 tasi inspektorning xizmat xonasiga integratsiya qilindi.

Profilaktika inspektori «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahalladagi yettilik a'zolari bilan hamkorlikda tizimli ishlarni yo'lga qo'ygani tufayli o'tgan 4 yilda mahalla har tomonlama osoyishta va xavfsiz hududga aylandi. Natijada «Guliston» mahallasi huquq-tartibot maskani 2024-yilda IIV tomonidan shu yo'nalishda o'tkazilgan respublika tanlovida faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritib, profilaktika inspektori xizmat avtomashinasi bilan taqdirlandi.

O'tgan bir hafta davomida ishchi guruhlar tomonidan probatsiya nazoratidagi va alohida

toifadagi shaxslar ishtirokida yakka tartibda suhbatlar va sayyor sudlar tashkil qilindi. Aholini ish bilan ta'minlash maqsadida mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Mahallaning ekologik holatini yaxshilash maqsadida hududda keng ko'lamli obodonlashtirish va tozalov ishlari yo'lga qo'yildi. Yig'ilib qolgan chiqindilar maxsus avtomashinalarda olib ketildi.

Ishchi guruh a'zolari va mahalla faollari bilan birga uyma-uy yurib, oilalardagi muammolarni manzilli ravishda o'rganishdi. Fuqarolar bilan suhbatlarda oilaviy qadriyatlarni asrash, oila-turmush doirasidagi nizolarning oldini olish, ahillik va totuvlikni mustahkamlash borasida maslahatlar berildi. Hozirda keng qamrovli profilaktik tadbirlar uyushqoqlik bilan davom ettirilmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



УРОК ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ



«Каждое государство и каждая нация в мире сильны прежде всего своим интеллектуальным потенциалом, высокой духовностью. А источником этой непобедимой силы являются книги и библиотеки – великое открытие человечества».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

КНИГА – СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛИ

Книга с древнейших времен служит важнейшим средством коммуникации, накопления и передачи знаний. Через нее поколения обретают мудрость, сохраняют культурное наследие, постигают историю и науку. Выражение «сокровищница мысли» справедливо применяется к библиотекам, архивам, музеям и цифровым платформам. Но именно книга как материальный носитель традиционно символизирует этот образ — за свою компактность, содержательность и способность вдохновлять.

Книги помогают нам понять традиции и ценности различных народов, открывают путь к познанию достижений в искусстве, технике, философии. Они расширяют кругозор, развивают критическое мышление, способствуют формированию эмпатии, вдохновляют на творчество, а в трудные моменты — становятся поддержкой и советчиком.

В Узбекистане в последние годы наблюдается устойчивый рост интереса к чтению, чему способствует реализация ряда государственных программ и инициатив. Внимание уделяется как развитию отрасли книгоиздания, так и повышению культуры чтения среди населения. В учреждениях системы внутренних дел также проводятся мероприятия, направленные на популяризацию книги и духовно-нравственное воспитание сотрудников.

Чтение в среде сотрудников органов внутренних

дел является неотъемлемой частью как профессионального, так и личного развития. Изучение нормативно-правовых актов, специализированной литературы по криминалистике,

служебных обязанностей. Чтение художественной и публицистической литературы расширяет кругозор, развивает аналитическое мышление, помогает глубже понимать общественные процессы



психологии, социологии способствует повышению компетентности и эффективному выполнению

и человеческую природу. Ежегодно в подразделениях МВД проводятся смотры-конкурсы книго-

любов, ставшие доброй традицией.

— Чтение книг позволяет как бы прожить жизни героев, окунуться в их мир, сопереживать, разделять их радости и утраты, — говорит инспектор профилактики ОПП Баяутского РОВД старший лейтенант Мухаммад Каршибоев. — Например, роман Абдулы Кадыри «Минувшие дни» произвел на меня глубокое впечатление. Это своего рода энцикло-

информационно-библиотечное обслуживание населения, внедряются современные образовательные и инновационные технологии.

Постановлением Кабинета Министров от 14 декабря 2020 года №781 утверждена Национальная программа развития и поддержки культуры чтения на 2020–2025 годы. В рамках Стратегии «Узбекистан – 2030» особое внимание уделяется популяризации произведений узбекской и мировой литературы, расширению доступа к библиотечным ресурсам, воспитанию у населения устойчивой привычки к чтению.

28 ноября 2023 года Президент Шавкат Мирзиёев подписал постановление «О мерах по реализации проекта «Тысяча книг для молодежи», направленное на перевод на узбекский язык наиболее популярных научных, художественных и мотивационных книг, способствующих интеллектуальному развитию подрастающего поколения.

Под руководством главы государства в стране формируется прочная правовая и материально-техническая база для развития детской и художественной литературы. Повышается качество учебной литературы, расширяется выпуск произведений классиков узбекской и мировой детской литературы. Конкурсы «Молодой читатель» и «Молодая читающая семья» способствуют укреплению семейных ценностей и духовному обогащению общества.

Сирожддин
ДЖУРАБАЕВ.



педия жизни той эпохи, в которой поднимаются вечные темы, остающиеся актуальными и сегодня.

Большая работа проводится в сфере развития библиотечной инфраструктуры. Создаются электронные библиотеки, расширяется доступ к ним через цифровые технологии, проводятся книжные ярмарки, фестивали, литературные встречи. Согласно Программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, утвержденной постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан, усиливается

BARCHA ISLOHOT VA YANGILANISHLAR

YANGI BINODA ZAMONAVIY QULAYLIKLAR

Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti bugungi kunda Toshkent viloyati Zangiota tumani Bog'zor qo'rg'onidagi yangi binoda o'z faoliyatini olib bormoqda. Zamonaviy ko'rinishda qad rostlagan bino 5 qavatdan iborat bo'lib, xodimlar samarali faoliyat yuritishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.



«Test markazi xonasi»



«Ruhiy yengillashtirish xonasi»da mayor Aziz Saxatov tomonidan psixologik trening mashg'ulotlari o'tkazib kelinmoqda.

TEZKORLIK VA XOLISLIK – BOSH MEZON

Axborot xizmati boshlig'i, kapitan Shahrizod Shokirov hamda katta mutaxassis, leytenant Sadridin Xayrullayev ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlik qilib, Departamentning rasmiy veb-saytiga xabarlarni tezkorlik bilan joylashtirish va o'z vaqtida yangilab borish kabi vazifalarni amalga oshirib kelishmoqda. Departament muassisligida chop etib kelinadigan «Vaqt-Vremya» gazetasi tahririyati binoning 4-qavatida joylashgan. Kezi kelganda aytish joiz, gazeta uzoq yillik tarixga ega bo'lib, ilk bor



1946-yilda «Mehnatda yuksalish uchun», «За трудовой подъем» nomli ko'p nusxali byulleten shaklida nashr etilgan.

Ijodiy jamoa jazo muddatini o'tayotgan shaxslarga jamiyatda yuz berayotgan yangiliklarni yetkazish, ular xulqini yaxshilash, huquqiy bilimlarini oshirish va boshqa turli yo'nalishda materiallar tayyorlashadi. Shuningdek, mazkur gazetada mahkumlar qalbini o'rtayotgan kechinmalar, ularning tazarrulari, ijod namunalari chop etiladi.

– Albatta, bu ijodkordan izlanish, tinimsiz mehnat talab etadi, – deydi gazetaning yetakchi mutaxassis-muharriri, kapitan Inomjon Rahimxo'jayev. – Shu bois ham jamoa «Zamon bilan hamnafas, davr bilan hamqadam» shiori ostida faoliyat yuritmoqda. Gazeta sahifalarida ko'plab chet mualliflar, turli soha mutaxassislari uchun ham ruknlar tashkil etilgan.

– Matbuot sohasida ishlashning o'ziga yarasha mashaqqati bor, – deydi gazeta bosh muharriri, kapitan Mixli Safarov. – Bu jarayonda, albatta, tahririyatimizning jonkuyar xodimlari – mas'ul kotib, katta serjant Gulnora Uzoqova, katta mutaxassis muxbir, kapitan Xadicha O'tayeva hamda dizayner Malika Abdusamadovanning hissalariga katta.

IJTIMOIIY HIMOYA – DIQQAT MARKAZIDA

Departamentning ijtimoiy himoya bo'limi tomonidan yil boshidan buyon 11 nafar xodimga uy-joylarini ta'mirlashlari uchun 515 million so'm foizsiz ssuda ajratildi. Bundan tashqari, 609 nafar xodim ijara uylarida yashayotganligi uchun kompensatsiya pullari to'lab kelinmoqda. 189 nafar xodimning 229 nafar farzandiga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlari uchun tavsiyanomalar berildi. Joriy yilda 300 nafar xodimga arzonlashtirilgan turar joylar ajratildi.

SABR MAQSADGA YETKAZADI

— Tizimning turli sohalarida 35 yildan ortiq xizmat qilib kelaman, ko'plab shogirdlar yetishtirdim, — deydi Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish boshqarmasi katta inspektori, podpolkovnik Shavkat Qurbonov. — Rosti, ular orasida qiyinchilikka bardoshi yetmay boshqa ishga o'tib ketaman, deganlari ham bo'lgan. Ammo har biri bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazib, qasamyodi va burchiga sodiq qolishi, sabrli bo'lishi kerakligini aytib, yana boshqa kerakli maslahatlar beraman. Tajribamdan kelib chiqib aytamanki, birorta shogirdim ishini tashlab ketmadi.

Jamoadagi e'tirof etsa arziydigan ustozlar juda ko'p. Ular yillar davomida o'rttirgan tajribasini shogirdlariga o'rgatib kelmoqda.

— O'tgan yili IIV Akademiyasini tamomlab, faoliyatimni shu yerda, Yuridik ta'minlash bo'limida boshladim, — deydi leytenant Sherzod O'rinov. — Ustozim – bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Aziz Nurmatovdan ishlarni hujjatlashtirish va to'g'ri yuritishni o'rganyapman.



INSON MANFAATLARI UCHUN

INSONPARVARLIK SIYOSATI – AMALDA

Faoliyat yuritayotgan 6 ta min-taqaviy muvofiqlashtirish markazi tarkibiga jazoni ijro etish koloniyalari, manzil koloniyalari va tergov hibsonalari kiradi. O'tgan davr mobaynida tizim muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash maqsadida ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, BMT Bosh Assambleyasining tegishli rezolyutsiyasiga asosan qabul qilingan «Jazo muddatini o'tayotgan shaxslar bilan muomala qilishning minimal standartlari qoidalari» (Nelson Mandela qoidalari) milliy qonunchiligimizga tatbiq qilinishi muhim voqea bo'ldi. Shuningdek, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etib, jazo muddatini o'tayotgan shaxslarga 2019-yildan boshlab ilk marotaba saylash huquqi berildi. Shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy muassasalariga joylashtirilishi, manzil-koloniyalarda jazo muddatini o'tayotganlarning pensiya olish huquqlari qonun bilan belgilandi. Yana shuni alohida e'tirof etish joizki, jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning ta'lim olishi uchun zarur sharoitlar yaratilib, ularni sifatli o'qitish yo'lga qo'yildi. Bu xayrli tashabbuslar tufayli tarbiya koloniyasidan ozodlikka chiqqanlar nufuzli oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi. Hatto ular orasida xalqaro miqyosdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotganlari ham bor.

ZIYO MASKANI



Binoda mo'jazgina, shinam kutubxona ham tashkil etilgan. Ushbu ziyo maskanida 2 mingdan ortiq tarixiy, huquqiy va badiiy adabiyotlar mavjud.

— Inson qancha ko'p kitob o'qisa, hayot haqidagi tasavvuri shuncha boyib, tiniqlashib boraveradi. Har tomonlama kamol topib, yetuk shaxs sifatida shakllanadi,

Prezidentimizning 2021-yil 26-iyundagi «Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili – (Ombudsman) huzurida qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur guruhlar zimmasiga jazoni ijro etish muassasalar va tergov hibsonalariga muntazam ravishda monitoring tashriflarini amalga oshirish, shart-sharoitlarni o'rganish va boshqa qator vazifalar yuklatildi. Shuningdek, barcha jazoni ijro etish koloniyalarida Ombudsmanga, prokurorga murojaat qilishga mo'ljallangan alohida pochta qutilari o'rnatildi.

Joriy yilning 16-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Unda to'lovlar «E-probatsiya» va «Yagona reyestr» tizimlari orqali elektron tarzda yuritilib, tijorat banklari orqali naqd pulda yoki bank kartalariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi belgilandi. Nafaqa O'zbekistonda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, yurtimizda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taalluqli ekani alohida qayd etildi.

— deydi kutubxonachi Xurshida Otajonova.

— Darhaqiqat, tizimdagi, ayniqsa, yosh xodimlarning kitobga bo'lgan mehrini oshirish muhim vazifa. Bu ishni amalga oshirishda kutubxonachining o'rni beqiyos, albatta. Bejizga ularni kitob va kitobxonni bog'lovchi oltin ko'pri, deb atashmagan.

HUNAR – HUNARDAN UNAR

Bugungi kunda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga o'rgatish, ularning kasbiy mahoratlarini oshirish, bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish va halol mehnatlari bilan oilasiga yordam berishlarini ta'minlash maqsadida Respublika «Hunarmand» uyushmasi bilan hamkorlik o'rnatilib, mutaxassislar tomonidan mahkumlarga kasb-hunar sirlari o'rgatib bo'rilmog'da. Ishlarni yaxshi o'zlashtirib, yetarli bilim va tajribaga ega mahkumlarga tegishli sertifikatlar beriladi.



Ayni paytda 34 ta koloniyada ishlab chiqarish

bo'linmalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 21 tasi sanoat ishlab chiqarishga, 13 tasi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Ularda tikuvchilik, kosibchilik, temirga ishlov berish, mebel va qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish, duradgorlik kabi 217 ta sex faoliyat yuritilmoqda. Mazkur sexlarda ichki bozor talabidan kelib chiqib, shuningdek, buyurtmalar bo'yicha 1000 ga yaqin turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Muassasalarda tikuvchilik, to'quvchilik va poyabzal tikish ham yo'lga

qo'yilgan. Harbiy va maxsus tuzilmalar uchun formal kiyim-boshlar, ishchilarga maxsus kiyimlar, poyabzallar tikilib, paypoq, matras, trikotaj va turli matolar hamda buyurtma bo'yicha boshqa turdagi mahsulotlar



ham yetkazib berilmoqda. Bundan tashqari, polietilen quvur, xo'jalik sovuni, hojatxona qog'ozi, alyumin profildan eshik va romlar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari, ya'ni qolipli non, makaron, tomat, sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, pillachilik ham yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligi faoliyatida birinchi navbatda, tizim tasarrufidagi muassasalarning ehtiyoji uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Respublikamiz bo'yicha qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan manzil-koloniyalarning g'alla maydonlarida har yili boshqoli don ekin turlaridan bug'doy hamda arpa ekiladi. G'alladan bo'shagan yerga mahkumlar ehtiyoji va chorva mollariga qish mavsumi uchun ozuqa jamg'arish maqsadida takroriy ekin uchun sabzavot, mosh, tariq, makkajo'xori, supurgi, kungaboqar va poliz ekinlari ekiladi.

Xulosa qilib aytganda, jazoni ijro etish tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohot va yangilanishlar inson manfaatlarini himoya qilish, uning qonunchilikda belgilangan huquqlarini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Adolat FAYZIYEVA tayyorladi. Abu KENJAYEV olgan suratlar.

МУЛОҲАЗА

«ҲАЁТНИНГ ҲАР ОНИ ҒАНИМАТ...»

Тарихчи Абдибек Шерозийнинг бир гапи бор: «Кун ўтганда «ўтди» деб бепарво бўлма, бу умрингдан бир ҳиссаси камайганини билдиради». Жуда ўринли эслатма. Хўш, ўтаётган ҳар лаҳзамизни бирор фойдали ишга сарф этилмишми ёки...? Буни ҳар доим сарҳисоб қиламизми? Гап ана шунда.


Поезд ёки самолётга чиптангиз бўла туриб, кеч қолганмисиз? 5 дақиқага бўлса ҳам кеч қолган йўловчи ўша дақиқаларнинг қадрини бошқалардан кўра яхшироқ тушунади. Ёки талабалик имтиҳонидан йиқилган абитуриент бир йилнинг қадрини яхши англайди. Ҳосили куз ёмғири остида қолган деҳқон эса бир кун қандай қийматга эга эканини билади. Бироқ тўй-ҳашамдан, гап-гаштакдан, уйда эса сериалу телефондан ортмайдиганлар-чи? Улар беҳуда сарф бўлаётган вақти учун кўнглида ачиши ҳиссини туяримкан?

Баъзан тўй-ҳашам, гаштаклар, турли йиғинларга (ҳозир кимдир янги нарсаси олса бўлди, зиёфатга сабаб бўлади) бора олмасанг, таниш-билиш ва қариндош-уруғлар ўпкалайди, хафа бўлади. Вақт йўқ эмас, бор. Лекин кети узилмайдиган бундай йиғини ҳашамларда кимнингдир янги кўйлаги, мебели, қимматбаҳо тилла тақинчоғини ёки тўйлардаги дабдабали олди-бердиларни муҳокама қилишдан кўра, Румийдан бир парча ўқиган афзалроқ, назаримда.

Эътибор қилганмисиз, ишхонага кун ўтарига келиб-кетувчилар бўлади. Улар асосий вақтини

валақлашиш, интернет титкилаш ёки телефонда гаплашиш, яъни, ҳеч нима қилмаслик билан ўтказиш (бекорчиликнинг шарофати билан гап-сўз, ғийбатлар ҳам урчийди баъзан). Камига, ҳеч нима қилмасдан олаётган маошининг баракаси йўқлигидан нолиб ҳам кўяди.

Бир танишим бор. Эшитган тўй-маъракани ўтказиб юбормайди. Лекин фарзандлари тарбиясига вақт ажратишига, уларга бирор ривоят ёки эртас айтиб беришига ишонмайман. Негаки, китоб, газета ўқимайди (ўзининг айтишича, бунга вақти йўқ эмиш), қизиқмайди ҳам.



Вақтни «эсиз», «қанийди», «кошкийди»лар билан ўтказган кишининг умри энг қисқа умр экан.

Нажмиддин Кубро

Ўйлаб қолдим, Навоий ҳам ўз даврида тўйма-тўй юрганмикан-а? Ёки Абдулла Авлоний, Беҳбудийлар вақтини беҳуда ўтказганмикан? Устозим айтиб берганди, академик Ботирхон Валихўжаев энг яқин одамнинг тўйидан ўн дақиқадан сўнг тоқати тоқ бўлиб, чиқиб кетган экан. Яна бир зиёли инсон – публицист, шоирнинг бундай чақирдиларга бормаслигини, вақтини қизғанишини эшитганман. Балки, улар кимларнингдир наздида «одамгарчиликдан чиққан» саналар. Бироқ улар умрининг ҳар лаҳзасида маънавий бойлик яратганлар.

Аслида ҳар бир кун кичкина умр. Фақат санокли одамларгина умрининг ҳар дақиқасини оқилона ҳисоб-китоб билан ўтказиш ва комилликка яқинлашади.

Хўш, ҳисобли умр нима? Мақсади аниқ қўйилган умр ҳисобли бўлади.

Одатий бир кунимизни нималарга сарф қилишимиз ҳақида ўйлаб кўрганмисиз?

Айтайлик, бир кечаю кундузда уйқуга ўртача 7,5 соат ажратамиз. Тушликка бир, эрталабки ва кечки тановулга ярим соатдан, жами – 2 соат. Соат 9:00 дан 18:00 гача ишда бўламиз. Эрталабки бадантарбия, сайр ва ювинишга бир соат. Телевизор кўришга – 3 соат. Газета, китоб ўқишга – 1 соат. Энди фарзандни мактаб ё боғчадан олишга, тўй ёки бошқа тадбирларда қатнашиш, театр ё концертга киришга кетган вақтингизни ҳисобланг.

Йиллар давомида ўқиб-ўрганганларингиз, фарзандларга бағишланган онларни сарҳисоб қилинг. Уларни қиёсланг, ўрганинг ва хулоса чиқаринг. Ўзингизга баҳо беринг. Сизга берилган ўлчовли умрни тўғри сарф эта оляпсизми, йўқми? Шунинг таҳлил қилинг. Зеро, оқил одам вақтини фойдасиз нарсаларга сарф этишдан қизғанади. Сизчи, сиз ҳам қизғанасизми?

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.



ҚИЛМИШ-ҚИДИРМИШ

«АЙБИНГ ШУКИ, УЧРАБ ҚОЛДИНГ КАЙФИМ ОШГАНДА...»

Маълумки, бугунги кунда ахборот-коммуникация технологиялари деярли барча жабҳаларга кириб келди, кундалиқ ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланишга улгурди. Узоққа бориб ўтирмасдан, кўчаларда, ташкилот ва идораларда, жамоат жойларида ўрнатилган видеокузатув камераларини бунга мисол қилиб келтириш мумкин.

Ушбу воситалар ҳолатни реал вақтда кузатиш, ҳудудларда тинчлик-осойишталикни таъминлаш, турли ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш, юз берганларини эса фош этишда яхши самара бермоқда. Минг афсуски, орамизда бундай техник воситаларга билиб-билмасдан шикаст етказётганлар ҳам учраб турибди.

Жорий йилнинг июль ойи ўрталарида тунги пайт Р.П. Нукус шаҳридаги кафеларнинг биридан кайфи тарақ ҳолда чиқади. У шовқин кўтариб, кўча бўйлаб гандираклаб кетаверади. Табиийки, унинг аҳволини кўрган бошқа фуқаролар ўзини четга олишади. Бир ҳисобдан

тўғри қилишади. Чунки мастдан одам тугул, ит ҳам кўрқаркан.

«Бўри билан кўзичоқ» масалини кўпчилик ўқиган бўлса керак. Масалда бўри «Айбинг шуки, учраб қолдинг қорним очганда» деб шўрлик кўзичокни еб кўяди. Р.П.га эса кайфи ошганида йўлда 2 та видеокузатув камераси учрайди. Ичкилик таъсирида шер бўлиб кетган «қаҳрамонимиз» камераларни уриб синдиради. Сўнг худди ҳеч нарсаси бўлмагандек, йўлида давом этади. Бундай хатти-ҳаракати туфайли «Хавфсиз шаҳар» алоқаларни ривожлантириш марказига уч миллион сўмдан ортиқ зиён етказилади.

Содир бўлган ҳуқуқбузарлик юзасидан келиб тушган мурожаат асосида олиб борилган суриштирув ҳаракатлари натижасида айбдор ички ишлар органлари ходимлари томонидан аниқланиб, қўлга олинади. Мазкур ҳолат бўйича ўтказилган суд мажлиси давомида фуқаро Р.П. ўзининг айбини тан олиб, мастлик туфайли содир этган бу қилмишидан афсусда эканлигини айтиб, енгилроқ жазо тайинлашини сўрайди. Суд қарорига кўра, ҳуқуқбузарга 10 сутка маъмурий қамоқ жазоси тайинланиб, етказилган зарарни қоплаш мажбурияти юклатилади.

– Бугунги кунда Нукус шаҳрида 1300 дан ортиқ видеокузатув камералари мавжуд. Уларнинг аксарият қисми Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Вазиятлар марказига интеграция қилинган. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ушбу техник

воситалар шаҳар ҳудудида содир этилаётган ҳуқуқбузарлик ва жиноятларни қайд этиш ва айбдорларни аниқлаш имконини бермоқда. Хусусан, жорий йилнинг ўтган даври мобайнида Нукус шаҳри бўйича 700 дан ортиқ жиноят қайд қилинган. Уларнинг 85 фоизга яқини айнан видеокузатув камералари ёрдамида «иссиқ изида» фош этилди. Шундай экан, ушбу техник воситаларни асраш ҳар биримизнинг инсоний бурчимиздир, – дейди Нукус шаҳар ИИБ ЖХХ ХПБ бошлиғи, майор Фарид Алеуов.

Биз ҳам ушбу фикрга тўла-тўқис қўшилаемиз. Зеро, шу тариқа жамоат тартибини сақлашга, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга оз бўлса-да ҳисса қўшган бўламиз.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси.



■ РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН

ДЛЯ УДОБСТВА НАСЕЛЕНИЯ

Житель отдаленного сельского схода граждан «Бестобе» М. Атакаев по состоянию здоровья не смог самостоятельно прийти за получением паспорта, а сроки оформления документа подходили к концу. Тогда он обратился в Управление миграции и оформления гражданства МВД Республики Каракалпакстан и изложил свою ситуацию. В ответ на обращение сотрудники выехали к нему домой, оперативно провели необходимые процедуры и вручили ID-карту.

За прошедший период текущего года с использованием мобильного оборудования оформлены документы для 305 граждан. При этом с 421 лица, находящегося на государственном попечении, государственная пошлина не взималась.

— В центре внимания также остаются вопросы трудовых мигрантов, находящихся за пределами страны. Нередко документы, удостоверяющие личность, теряются, приходят в негодность или истекает срок их действия. С начала года 715 наших соотечественников вернулись на Родину, получив свидетельства о возвращении. В таких случаях уведомляются соответствующие

структуры, с гражданами проводятся профилактические беседы, — рассказывает начальник управления майор Шавкат Тураев.

В первом полугодии в целях идентификационного документирования населения собраны сведения о более чем 127 тысячах человек. Совместно с хокимиатами, органами самоуправления граждан и представителями общественности на постоянной основе проводятся мероприятия под названием «Паспорт-виза». Они направлены на обеспечение общественной безопасности, предупреждение преступлений, правонарушений и возможных террористических угроз. В ходе проверок к административной от-



ветственности привлечены 3 944 лица, нарушивших установленные правила.

В рамках операции «Спитамен» проводится проверка гостиниц, хостелов, гостевых домов, а также иностранных и совместных предприятий. В результате установлены 254 нарушителя правил пребывания в Республике Узбекистан, среди них 173 — граждане стран СНГ и дальнего зарубежья,

81 — домовладелец. В пользу государства взыскано 440 миллионов сумов.

Особое внимание уделяется обращениям граждан. За отчетный период поступило 67 обращений. Проблемы, изложенные в 35 из них, решены положительно, по 31 даны официальные разъяснения. Одно обращение взято на особый контроль.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

■ РАЗМЫШЛЕНИЕ НА ТЕМУ

ГРАЖДАНСКАЯ ПОЗИЦИЯ: ВМЕШИВАТЬСЯ ИЛИ НЕТ?

Мы нередко видим, как граждане реагируют на конфликты: одни проходят мимо, другие бросаются «на защиту справедливости». Где грань между сознательностью и опасным самоуправством?

Равнодушие — тревожный сигнал для общества. Проявлять гражданскую позицию — значит не быть безразличным. Но важно помнить: вмешательство не всегда приносит пользу. В стремлении помочь можно ошибиться, пострадать самому и даже оказаться фигурантом дела.

Не каждый готов действовать в стрессовой ситуации. Этому обучены сотрудники органов внутренних дел — именно они уполномочены вмешиваться. Иногда лучшая помощь — это быстрое сообщение сотрудникам ОВД, точное описание происходящего и наблюдение за ситуацией до их прибытия.

Ответственность — это не порыв, а взвешенные действия. Самосуд — преступление, самоуправство — нарушение закона. Даже с благими намерениями можно оказаться на скамье подсудимых.

Вмешаться — не значит ввязаться в драку. Это значит — сохранить хладнокровие, оценить ситуацию и позволить профессионалам действовать. Настоящая зрелость — в умении понять, где заканчивается инициатива и начинается закон.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.

■ САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ

ПОВСЕДНЕВНАЯ РАБОТА — В ПОМОЩЬ ЛЮДЯМ

Каждый день сотрудники патрульно-постовой службы выходят на улицы, чтобы поддерживать порядок, предупреждать правонарушения и помогать гражданам. Их служба — одна из самых приближенных к населению, а маршруты патрулей охватывают все районы города Самарканда.

Патрульно-постовая служба давно зарекомендовала себя как одно из самых эффективных подразделений в системе органов внутренних дел. За плечами сотрудников — десятки спасенных жизней и раскрытых преступлений. В настоящее время на улицы города по 135 маршрутам выходят 50 автопатрулей и 12 пеших нарядов.

С начала года сотрудниками ППС совместно с другими структурами раскрыто 96 преступлений. Кроме того, разыскано более 50 лиц, находившихся в розыске, установлено местонахождение четверых без вести пропавших. Оформлено свыше 39,5 тысячи административных взысканий. Основная часть нарушений связана с несоблюдением водителями правил остановки и стоянки, нарушением общественного порядка и другими правонарушениями.

В своей работе сотрудники нередко сталкиваются с нестандартными ситуациями, оказывая помощь гражданам, пострадавшим от преступлений, административных



правонарушений и несчастных случаев, а также находящимся в беспомощном или ином опасном для жизни и здоровья состоянии.

— Недавно мы помогли женщине открыть автомобиль, — рассказывает сотрудник ППС рядовой Мухиддин Абдуганиев. — Дверной замок заклинило, и пульт не реагировал. С помощью железной проволоки удалось вскрыть дверь, хотя это заняло больше получаса. Стараемся помочь каждому.

Несколько лет назад было создано новое подразделение — группа «Эзгулик патру-


ли», в которую вошли лучшие сотрудники. Основная задача группы — обеспечение безопасности туристов, прием заявлений и жалоб, оказание помощи гражданам.

Патрульно-постовая служба, безусловно, является самым близким к населению подразделением органов внутренних дел. Именно этих ребят можно встретить везде и в нужную минуту обратиться к ним за помощью.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



KASHFIYOTLAR PILLAPOYASI



Insoniyat hamisha yangilikka, yaratuvchanlikka intilib yashagan. Bu bilan u o'z turmush sharoitini yengillashtirishga, qulayliklar tug'dirishga harakat qilgan. Inson aqli bilan yaratilgan yangi bir narsa ixtiro, deb ataladi. Nazarimizda, bugun ixtirolar yaratishga ishtiyoqmand odamlar yo'qdek. Chunki, yangilik kashf qiladigan sabablar qolmagandek va inson hayoti uchun zarur bo'lgan hamma narsa yaratilgandek tuyuladi...

Demak, kashfiyot – tabiatda olindan mavjud bo'lgan hodisaning sirini ochishdir. Yon atrofimizdagi, ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'radigan barcha jonsiz narsalar odamlar tomonidan qachonlardir kashf qilingan, deb aytishga to'la haqlimiz. Chunki oddiy qalamdan tortib, eng murakkab mashina va kompyuter texnikalari ham kimlarningdir irod mahsulidir.

Shunday kashfiyotlar ro'yxatida fotografiya alohida joy egallagan. Bugun fotografiyasiz ommaviy axborot vositalarini tasavvur etish qiyin. Fotosuratsiz gazeta, jurnallar, kino, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ko'rimsiz, g'arib bo'lib qolishini barchamiz tushunamiz.

Fotografiya XIX asr boshlarida, aniqrog'i, 1839-yilda fransiyalik fizik olimlar Lui-Jak Mande Dager va Jozef Nisefor Nepslar tomonidan yaratilib, dastlab «dagerotipiya» deb nom olgan. Optika, mexanika va ximiya kabi fanlarning yutuqlari fotografiyaga asos solgan, deb aytishga haqlimiz. Oldiniga oq-qora ko'rinishdagi fotosuratlar keyinchalik (deyarli 100 yildan so'ng) rangli tus oldi. Bu ham yangi izlanishlar natijasidir.

Biroq insoniyat hech qachon o'zi ixtiro qilgan mahsulidan to'liq qoniq-magan, shuning uchun odamlar aks ettirilgan fotosuratlarini jonlantirishga urinib ko'rishgan. Asr oxiriga kelib, aniqrog'i 1895-yilning 28-dekabrida Parij shahrida, fransiyalik aka-uka Jan Lui va Ogyust Lyumerlar dunyoda ilk bor jonli fotografiyaning ommaviy namoyishini o'tkazishdi. Ular ixtiro qilgan narsani «Cinematograf» deb atashdi. Birinchi marta tomoshabinlar e'tiboriga namoyish etilgan, boryo'g'i 3 daqiqali filmlar «Poyezdning stansiyaga kelishi», «Bog'bonning suv sepishi» va «Bolaning ovqatlanishi» deb nomlangan. Shu sana rasmiy kino ixtiro qilingan kun deb qabul qilingan.


Oldiniga bu kashfiyotga faqat daromad keltiruvchi yangi mo'jizaviy attraksion sifatida qaraldi. Chunki u odamlarga sodir bo'layotgan voqealarni yaqqol ko'rsata olgan va bu bilan ularni o'ziga rom qilib qo'ygan edi. Natijada kinotasmada aks ettirilgan hayotning bir bo'lagini istagan-cha qayta-qayta ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi.

Yangi kashfiyotning odamlar ongiga ta'siri naqadar kuchli ekanini

anglagan ixtirochilar yangi mo'jizalar yaratishga intilishdi. Jonli fotografiya bilan qiziquvchilar shunchalik ko'payib ketishdiki, tez orada bu soha butun dunyoni o'ziga qamrab oldi. XX asrning boshlariga kelib Fransiya, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Rossiya, Italiya va Shvetsiya kabi davlatlarda kino sanoati keng tus oldi. Bora-bora hujjatli, badiiy, multiplikatsion yo'nalishdagi filmlar yaratila boshlandi.

Dastlabki filmlar odatda atrof-muhitda sodir bo'layotgan hodisalarni aks ettirgan hujjatli filmlar edi. Keyinchalik badiiy asarlar asosida, aktyorlar ishtirokida suratga tushirilgan filmlar yaratila boshlandiki, endi kino haqiqiy san'at darajasiga ko'tarildi.

Kino san'atining o'tgan salkam bir yarim asrlik vaqti mobaynida qoldirgan izi beqiyosdir. Yangi kashfiyotning keng rivoj topishida vatan-doshimiz, xorazmlik Xudoybergan Devonovning ham munosib hissasi bor. U qadimiy Xiva shahrining manzaralarini, o'sha davrdagi yurtimiz



hayotini, xalqimizning milliy urf-odat-lari, uning tashvish va quvonchlarini tasmaga tushirib Vatanimiz tarixini kinoda muhrlab qoldirdi.

Hozir biz o'tmishdagi avlodlar hayotini, davlatimizda va butun dunyoda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tarixiy kinotasmalarda ko'rib, o'sha davrni yaqqol tasavvur qilish imkoniyatiga egamiz. Bu albatta buyuk kino san'atining hozirgi va kelajak avlodlar uchun qoldirgan bebaho tuhfasidir. Bundan tashqari, kino san'ati odamzodga notanish bo'lgan dengiz tubidagi hayotni, yer yuzidagi barcha jonzoqlarning yashash va ri-

vojlanish evolyutsiyasini, hattoki, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan mikroorganizmlarning o'z-o'zidan ko'payishini ko'rsatib berish imkonini yaratdi. Odamlar o'zlari yashab turgan kurrayi zaminni uzoq kosmosdan tushirilgan kinokadrlar orqali ko'ra olishdi. Kino materiallariga asoslanib, inson hayotining rivoji uchun muhim bo'lgan barcha sohalarida yuzlab, balki minglab ilmiy ishlar qilindi.

Yillar o'tib, kino san'atining imkoniyatlarini yanada kengaytirish choralari ustida izlanishlar olib borildi. Endi dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni zudlik bilan tomoshabinlarga yetkazish ehtiyojlari tug'ildi. Kino rivojlanishi davrida yangi bir tarmoq yuzaga keldi. Bu XX asr boshlarida ixtiro qilinib, faqatgina 50-yillarga kelib keng rivoj topgan televideniye. Bu borada ham O'zbekistonning tutgan o'rni alohida. 1928-yilda Toshkentda leningradlik ixtirochilar P.Grabovskiy va F.Belyanskiylar elektron nur yordamida harakatlanayotgan tasvirni bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan uskuna yaratishdi. U muvaffaqiyatli sinovdan o'tgach, elektron televideniye asos solindi.

Hozirgi kunda televideniye insoniyat hayotida tutgan o'rni beqiyos. Televideniye taraqqiyotida ko'plab imkoniyatlar yaratilishi bilan bir qatorda, juda katta mas'uliyatlar

ning boyligiga havasi keladi kishining. Aytib o'tish joizki, O'zbekiston televideniyesi ham hech qaysi davlatdan qolishmaydigan jahon andozalariga javob beradigan texnik uskunalar, o'zining professional kadrlariga ega. Mavjud sharoit va imkoniyatlar yangi kashfiyotlar zinapoyasining yana bir pog'onasiga ko'tarilish imkonini beradi.

Hayot bilan barobar inson manfaatlariga xizmat qiladigan yangi kashfiyotlar yaratish davom etmoqda. Dunyoda elektronika, optika, kibernetika kabi sohalarining revolyutsion taraqqiy etishi natijasida turmushimizga raqamli fotografiya, uyali telefon aloqasi, bir dunyo ma'lumotlarni o'z ichida saqlab turadigan mikrochiplar kabi yangi ixtirolar kirib keldi. Yuqorida eslab o'tilgan barcha sohalarini o'zida mujassam etgan ixcham elektron uskunalar yaratildi. Bugun jamiyatning barcha qatlamlari: yosh boladan tortib, keksa insonlarning hammasi bir zumda fotosuratchi va kinochiga aylandi. Bu ham bo'lsa, ixtiro qilingan yangiliklarning hamma-bopligidadir.

Umuman, dunyoda hamma narsa bir-biriga bog'liq bo'lgan holda rivojlanadi. Yangi bir kashfiyotning yaratilishiga, albatta, ikkinchi bir holat sababchi bo'ladi. Bu jamiyatning spiral tarzidagi rivojlanish qonunidir.

Xulosa o'rniida aytish mumkinki, qudratli axborot vositasi hisoblangan televideniye kelib chiqishiga undan oldin qilingan ixtirolar sabab bo'ldi. Bularni qaytadan eslatib o'tadigan bo'lsak, televideniye paydo bo'lishiga kinematografiya turtki bo'ldi, o'z navbatida esa, kino sohasining kelib chiqishiga fotografiyaning ixtiro qilinishi omil bo'ldi. Bu ro'yxatni zanjir reaksiyasiga asoslangan holda yana davom ettiradigan bo'lsak, fotografiyaning paydo bo'lishiga undan oldin mavjud bo'lgan rassomchilik, tasviriy san'at turtki bo'lgan. U esa, o'z navbatida, ibtidoiy zamonda yashab o'tgan va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan odamlarning toshlarga chizib qoldirgan rasmlariga asoslanib yuzaga kelgan, deb mulohaza qilishimiz mumkin.

Bilmadim, kelajakda insoniyatni bu borada yana qanday yangi kashfiyotlar kutmoqda? Bu to'g'rida aniq bashorat qiluvchilar topilmasa kerak. Biroq ularning negizini ijod mahsuli tashkil qilishi aniq. Dunyoda hayot davom etarkan, albatta, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan yangi-yangi kashfiyotlar, ixtirolar yaratishadi. Ularning nimadan iborat ekanini esa vaqt ko'rsatadi.

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.



ORAMIZDAGI QAHRAMONLAR

KUCHLILAR QISMATGA ROZI BO'LMAYDI

Nogironlik nafaqasidagi ichki ishlar xodimi, katta serjant Yunusjon Xodjixodjayev zamonamiz kishilariga o'rnak bo'ladigan hayot yo'liga ega. Bu inson o'z vaqtida yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shib, ko'plab qahramonlik namunalarini ko'rsatgan. Xususan, 1999-yil Andijon shahrida qurollangan jinoyatchilarni qo'lga olishdagi faol ishtiroki uchun «Jasorat» medaliga sazovor bo'lgan. Aslida chinakam erlar yurtini unvon-u mukofotlar uchun emas, mehr-muhabbati, or-nomusi tufayli himoya qiladi.

Qahramonimiz 1995-yil harbiy xizmatdan qaytgach, Andijon viloyati IIB maxsus jangovar harakatdagi otryad xodimi lavozimida xizmatni boshladi. Bu davr mobaynida hayotini tahlikaga qo'yib, ko'plab qurolli to'qnashuvlarda qatnashdi. Ularning har birida kasbiy mahorat va tajribasiga tayangan holda, jinoyatchilarga qarshi kurash olib bordi.

2000-yilda Poytug' shahrida yuz bergan qurolli to'qnashuvlar sira yodidan chiqmaydi. O'shanda bir guruh yovuz niyatli kimsalar yurtimiz tinchligiga raxna solish maqsadida terroristik harakatlarni amalga oshirmoqchi bo'lgandi. Ming shukrki, tarkibida Yunusjon Xodjixodjayev bo'lgan maxsus jangovar bo'linma bunday g'arazli harakatni o'z vaqtida to'xtatib qoldi. Qora kuchlar o'z maqsadiga yeta olmadi. Agar 2004-yilda hayotiga tahdid solgan o'sha mudhish voqea yuz bermaganda, u hali hanuz yurt tinchligi yo'lida borini berayotgan bo'lardi. Navbatdagi maxsus tadbirda jinoyatchilar boshqaruvidagi avtomashina ostida qolib, qattiq jarohat oldi. Shukrki, joni omon qoldi, ammo bir oyog'idan

ayrildi. Oxir-oqibat 2005-yilda nogironlik nafaqasiga chiqishga majbur bo'ldi.

Bu voqealarga ham 20 yil to'ldi. Qahramonimiz mazkur yillar mobaynida hayotidagi ikkinchi shakllanish davrini boshdan kechirdi. U mato-natli va o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygan kuchli sportchiga aylandi. Inson boshiga sinov kelganda ikki yo'l turadi: yengilish yoki kurashish. Yosh Yunusjon ikkinchi yo'lni tan-ladi. Bu yo'lda mardonavor qadam tashlashiga sababchi bo'lgan inson – kurashning sambo turi murabbiysi Jahongir Qarshiboyevning ko'ma-gini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Ustozning sa'y-harakati, qo'llab-quvvatlashi tufayli Y.Xodjixodjayev sportda salmoqli natijalarga erishdi: uch karra O'zbekiston chempioni, pauyerlifting bo'yicha sport ustasi.

Bugun Yunusjon akening o'zi ham tajribali murabbiyga aylangan. Bir necha yillardan buyon Andijon shahrida og'ir atletika bo'yicha mashg'ulotlar olib borib, yosh avlodning jismonan va ruhan chiniqishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Murabbiylik faoliyatida ko'plab



championlarni yetishtirdi. Shogird-larining ko'pchiligi uning tavsiyasi va maslahati bilan ichki ishlar sohasida faoliyat olib bormoqda.

Qahramonimiz vatanparvarlik tuyg'ularini farzandlariga ham sing-dirgan. Ikkinchi o'g'li Muhammad-yusuf Yusufjonov shu yil sambo bo'yicha Osiyo chempioni bo'ldi. U dadasining yo'lini davom ettirib, jangovar otryadda xizmat qilmoqchi.

Achchiq qismatga duchor bo'lganiga qaramay, Yunusjon akening vatanparvarlik xislatlari hamon uyg'oq. Imkon tug'ilsa, hozir ham jinoyatchilarga qarshi kurashib, oso-yishtaligimizni himoya qilishga shay. Jismonan baquvvat, alpdek kelba-

tidan kuch yog'iladi. Bu har kungi muntazam mashg'ulotlar samarasi. Undagi jismoniy barkamolikka to'rt muchasi sog' bo'lgan ancha-mun-cha odam erisholmaydi. Irodasi ham metindek mustahkam.

– Baxtsiz hodisaga uchraganim-dan so'ng bir oyog'im bilan ham xizmat qilmoqchi bo'lganman, – deydi u to'liqlanib. – Vatan uchun xavf-xatarga tik borish er kishining burchi. Agar bu yo'lda qandaydir yo'qotishga uchrasak ham, rozimiz. Chunki chinakam erkak qismatiga rozi bo'lmaydi. O'ziga yangi taqdir yaratadi.

Nigoraxon TO'XTAMATOVA,
o'z muxbirimiz.

HAMKASBLARIMIZ HAQIDA

ORTGA QAYTISH YO'Q

Ota farzand uchun orqa, tog'. Uning ishonchi eng katta harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Qahramonimiz – leytenant Malohat Qarshiyevaning hayotda o'z o'rnini topishida ham ota ishonchi va duosi katta turtki bo'ldi.



– Oilada 4 qizimiz, men to'ng'ich farzand bo'lganim uchun otam doim kuchli, qat'iyatli bo'lishga, shu orqali singillarimga o'rnak ko'rsatishimga undagan, – deydi u. – Otam ichki ishlar organi xodimi bo'lishimni xoh-lagan va shu kasbga mehr uyg'ot-gan. U kishining «Yo'lga chiqdingmi, ortga qaytish yo'q, doim oldinga ha-rakat qilishing kerak!» degan so'zlari meni hayotda har doim olg'a qadam tashlashga undaydi.

Faoliyatini Navoiy viloyatida boshlagan Malohat Qashqadaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasida ham bi-roz muddat xizmat qildi. Hozir esa Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi guru-hi inspektori sifatida Termiz shahri-dagi temiryo'lga yaqin joylashgan «Yulduz», «Shifokor», «Chegarachi», «Temiryo'lchi» mahallalarida huquq-buzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mas'ul.

Leytenant M.Qarshiyeva temir-yo'l yoqalab chorva mollarini boqish, belgilanmagan joydan kesib o'tish, temiryo'l izlariga shikast yetkazish kabi holatlardan fuqarolarni ogoh-

lantirib, favqulodda holatlarning oldi-ni olishga katta hissasini qo'shyapti.

U badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishni xush ko'radi. «Zakovat» intellektual o'yinlari, «Zukko kitob-xon» tanlovlarida faol qatnashib kelmoqda.

– Har bir asardan hayotiy xu-losalar olaman, – deydi Malohat. – So'nggi marta yapon adibi Yuy Xuening «Yashamoq» nomli asarini o'zgacha ishtiyoq bilan o'qidim. Inson bu hayotda hamma narsa-ga o'z mehnati orqali erishishi va bir lahzada topganlarini yo'qotishi mumkinligini tushundim. Shuning uchun kishi hayotda hamma narsaga tayyor turishi lozimligini angladim.

O'z kasbiga sadoqatli lavhamiz qahramoni yaqinda ko'p qavatli uy-lardan birining xonadon egasi bo'l-gani uning oilasi uchun chinakam sovg'a bo'ldi.

Leytenant M.Qarshiyeva o'tgan yili IIV Akademiyasini sirtidan tamom-ladi. Keyingi faoliyatini jinoyat qidiruv yo'nalishida davom ettirish niyatida.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

O‘TMAGAN TAKLIF yoki pora berish jinoyatining achchiq ta’mi

Kapitan Adham Abduqahhorov ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini 2012-yilda boshlagan. Ikki yildan buyon Uchqo‘rg‘on tumani «Istiqbol» mahallasida profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Mahalla aholisi 4824 nafar, 560 ta xonadon, 2 ta ko‘p qavatli uy mavjud. Lavhamiz qahramoni joriy yil boshidan buyon bugungi kunga qadar mahallada istiqomat qiluvchi 1 nafar oilaviy janjalkash, 7 nafar ichkilikbozlikka ruju qo‘ygan shaxs bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazdi. Shuningdek, 20 nafar muqaddam sudlangan, 30 nafar ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan shaxs bilan muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib bormoqda. Mahalla yetiligining boshqa a‘zolari bilan birga xonadonma-xonadon yurib, huquqbuzarlik sodir etish va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlab, ijtimoiy profilaktika yo‘nalishida xulosalar kiritib kelmoqda.

Yaqinda Adham Abduqahhorovga shu mahallada istiqomat qiluvchi I.J. murojaat qildi. U o‘z murojaatida Andijon shahrida yashovchi R.A. uning ishonchiga kirib, 39 700 AQSH dollarini o‘zlashtirib olganligini bayon qilib, ushbu pullarni undi-

rishda yordam so‘raydi. Inspektor andijonlik R.A. bilan gaplashganida, u o‘ziga nisbatan to‘plangan hujjatlarni tergov bo‘limiga chiqarmaslik evaziga kapitan Adham Abduqahhorovga 300 dollar pora taklif etadi. Albatta, inspektor R.A.ning jinoyatga yetaklovchi bu qaltis taklifini rad etadi. Pora berish jinoyat ekanligini unga yotig‘i bilan tushuntiradi. Bunday xatti-harakat uchun Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiradi. Lekin R.A. qayta-qayta pora taklif qilaveradi.

— Agar e‘tibor bersangiz, qing‘ir ishga moyil, g‘araz niyatli odam boshqalarni ham o‘ziga o‘xshatadi: hammani pul berib, o‘z yo‘rig‘iga yurgizsa bo‘ladi, degan xomxayolda yuradi, — deydi kapitan Adham Abduqahhorov. — Bunday fuqarolarga nisbatan qonuniy chora ko‘rish eng to‘g‘ri yo‘l deb hisoblayman.

IIV shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi Namangan viloyati bo‘yicha boshqar-



masi xodimlari va Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti tuman bo‘limi xodimlari bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqaro R.A. profilaktika katta inspektori Adham Abduqahhorovga 300 AQSH dollarini pora sifatida berayotgan vaqtda qo‘lga olinadi. Ushbu holat bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, hozirda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Fuqaro R.A.ning pora berib, ish bitirishga urinishi yaxshilikka olib bormadi. Endi u mazkur jinoyatning achchiq ta‘mini tatib ko‘rishga majbur bo‘ldi...

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

ИЗ СЛЕДСТВЕННОЙ ПРАКТИКИ

ДЕТАЛИ МОШЕННИЧЕСКОЙ СХЕМЫ

Жительница Ташкента Ирина Бакунина (здесь и далее имена и фамилии изменены из этических соображений), 1973 года рождения, разработала хитроумную схему. Цель — завладение чужим имуществом.

Используя недюжинные навыки убеждения, она получила от своей давней знакомой, ныне гражданки России Светланы Биркиной, 1976 года рождения, генеральную доверенность на продажу принадлежащей ей квартиры. Данная квартира, расположенная на массиве Куйлюк Сергеевского района, осталась Светлане в наследство от ее покойной мамы — тети Ани.

Бакунина воспользовалась доверием, основанным на давнем знакомстве, чтобы реализовать преступный замысел. Она нашла покупателя — Анвара Абдуллаева, который согласился приобрести квартиру за 29 000 долларов США. У нотариуса был оформлен договор купли-продажи жилого помещения на указанную сумму. Однако Ирина свои обязательства выполнила лишь частично, вернув Светлане

3 800 долларов США. Оставшуюся часть суммы от продажи квартиры женщина истратила на собственные нужды.

Светлана Биркина обратилась в правоохранительные органы с заявлением. По данному факту Следственным отделом при УКД ОВД Яшнабадского района было возбуждено уголовное дело по пункту «а» части 4 статьи 168 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, предусматривающему ответственность за мошенничество в особо крупном размере. После окончания предварительного следствия с обвинительным заключением дело было направлено в суд для принятия законного решения.

Дилшода РАШИДОВА,
подполковник.
Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

ЖЕНЩИНА В ПОГОНАХ

На страже душевного равновесия

Майор Зумрад Сапарова — старший психолог группы психологического обеспечения УКД ОВД Бектемирского района. На первый взгляд — спокойная, сдержанная, с мягкой улыбкой. Но за этой внешней деликатностью скрывается сила духа, ответственность и искреннее желание помочь людям.



Она родилась в 1988 году в городе Тойтепа Ташкентской области. Училась старательно, и с юных лет проявляла интерес к человеческой душе, стремление понять и поддержать окружающих. Этот интерес стал определяющим при выборе профессии: после окончания школы она поступила на факультет психологии Национального педагогического университета Узбекистана им. Низами и успешно завершила обучение в 2010 году.

Сначала Зумрад работала преподавателем в колледже, передавая свои знания молодежи. Однако со временем все более явно ощущала потребность в более активной, практически ориентированной работе, связанной с реальной помощью людям. Так, в 2012 году она пришла на службу в органы внутренних дел, начав профессиональный путь психолога в подразделении охраны Ташкентской области.

Сегодня в ее обязанности входит проведение психологических тренингов, профилактических встреч и консультаций в школах, колледжах, других образовательных и общественных учреждениях. Она помогает подросткам справляться с эмоцио-

нальными трудностями, повышает их интерес к вопросам душевного здоровья и укрепляет уверенность в себе.

Скромная и ответственная, Зумрад Сапарова не любит говорить о своих заслугах, но хорошо известна среди коллег как специалист, на которого можно положиться. Когда в отдел приходят курсанты Академии МВД на практику, она всегда готова поделиться опытом и помочь с освоением профессии.

Несмотря на плотный график, она находит время для спорта и занятий йогой — это помогает сохранять внутреннюю гармонию и ресурсное состояние. Воспитывает сына, которому старается передать важные жизненные ценности — честность, доброту и силу духа.

Работа психолога в органах внутренних дел требует не только глубоких знаний, но и большого терпения, искреннего сочувствия, умения выслушать и понять. Зумрад Сапарова выбрала эту непростую стезю осознанно — и с каждым годом подтверждает правильность своего выбора.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.
Фото Икрома ХАСАНОВА.



ULAR HOZIRDILAR HAR JOYDA...

YPX inspektori fuqaroning hayotini saqlab qoldi

Joriy yil 16-iyul kuni belgilangan hududda xizmat o'tayotgan viloyat IIB JXX YHXB yo'l-patrul xizmati batalyoni YPX inspektori, kichik serjant Nodir Mirzayev bir fuqaro o'zini ko'prikdan Qarshi magistral bosh kanaliga tashlaganiga ko'zi tushdi. Fursatni qo'ldan boy bermaslik va fuqaroni qutqarish uchun xizmat kiyimida suvga sakradi. Taxminan yuz metr masofaga suzib borgan Nodir fuqaro suv yuzasiga qalqib chiqqanini ko'rdi va uni qirg'oqqa olib chiqdi.

Surishtiruv davomida Qarshi tumanida yashovchi 48 yoshli fuqaro o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgani aniqlandi.

– O'sha kuni ruhiy tushkunlik sabab o'z jonimga qasd qilmoqchi bo'ldim, – deydi B.R. – YPX inspektori hayotimni saqlab qoldi. Buning uchun undan minnatdorman. Har qanday payt va vaziyatda yordamga shay ichki ishlar organlari xodimlari doim sog'-salomat bo'lishsin.

Qarshi tumanida 1986-yilda tug'ilgan Nodir Nishon agroiqtsodiyot kasb-hunar kollejida, huquqshunoslik yo'nalishida tahsil oldi.

Harbiy xizmatdan qaytgach, ichki ishlar organlariga

hujjat topshirdi va 2007-yili viloyat IIB Qo'riqlash boshqarmasi «Sho'rtanneftgaz» USHKni qo'riqlash batalyonida xizmat faoliyatini boshladi. Tasarrufdagi obyektlar xavfsizligini ta'minlash borasidagi kasb sirlarini ustoz, podpolkovnik Bahrom Yoqubovdan o'rgandi. Tishishqoqligi, zimmasidagi vazifalarni bekor-kost bajarishi bilan e'tiborga tushdi. Sevimli mashg'uloti – suzish bilan shug'ullanishni ham kanda qilmadi.

Viloyat IIB PPX va JTSB PPX batalyonida, keyin esa yo'l harakati xavfsizligi xizmatida faoliyatini davom ettirdi. Shundan buyon u qoidabuzarliklarni aniqlash,

yo'l-transport hodisalarini oldini olish, avariya o'choqlari va piyodalar gavjum joylarda xavfsizlikni ta'minlashda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. Birgina joriy yilda ikki yuzdan ortiq qo'pol qoidabuzarliklarni aniqladi.

Bundan bir necha yillar oldin o'zi shogird bo'lgan kichik serjant Nodir Mirzayevni G'uzor tumani IIB JXX YHXB katta inspektori, leytenant Bahrom Xalilov, boshqarma JXX YHXB texnika nazorati guruhi inspektori, safdor Dilshod Karimovlar ustoz deya e'zozlashadi.

MA'LUMOT O'RNIDA:

Qarshi magistral bosh kanali taxminan o'n metr chuqurlikda, 40 metr kenglikda bo'lib, asosiy suv o'tkazish hajmi 195 kubometr-sekundni tashkil etadi. Qarshi shahri va bir nechta tumanlarni sug'orish manbayi hisoblangan magistral kanalning suv yuzasi sokin ko'rinsa-da, pastki qismi nihoyatda tez oqadi.

Rasul bobo bilan Marhamat momoning to'rt farzandi orasida ikkinchisi Nodir Mirzayev turmush o'rtog'i Shahnozaxon bilan 2 nafar farzandni tarbiyalab kelmoqda.

Xalqimizda «Qatorda no-ring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi» degan naql bor. Bu ichki ishlar organlarida

18 yildan buyon xizmat qilib kelayotgan Nodir Mirzayev singari ahdiga, qasamyodiga sodiq, fidoyi va mard xodimlarga nisbatan aytilganiga shubha yo'q.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

BOLAJONNING XALOSKORI

Leytenant M. Muzaffarov xizmat o'tayotgan «Teraklik» mahalla fuqarolar yig'ini ayni paytda «yashil» toifada, aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi.

– Joriy yilning 3-aprel kuni mahallani aylanib yurganimda, bir ayolning baqir-chaqiri eshitildi. Zudlik bilan tovush kelgan tomon yugurdim. Borsam, yigirmaga yaqin fuqaro to'plangan, ayol esa 4–5 yashar bolani qo'ldan qo'ymay «yordam

ga olib kelgan ekan. Shifokorlar muolaja qilishib, isitmasini tushirishadi. Shundan xursand bo'lib, buvi nabirasi bilan kabobxo'rlik qilmoqchi bo'lishadi. Hali oshxonaga kirmasdan, yana nabiraning tobi qochib qoladi...



beringlar»dan nariga o'tmayotgandi. Shoshganimdan barmoqlarim bilan tilini oldinga tortdim va bolani oilaviy shifokorlik poliklinikasiga olib bordim. Tezda tibbiy yordam ko'rsatilgani bois bolaning hayoti saqlab qolindi.

Keyin ma'lum bo'lishicha, rozmozlik O.Boltayeva besh yoshli Shahboz ismli nabirasining isitmasi ko'tarilgani bois poliklinika-

Lavhamiz qahramoni Vobkent tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori lavozimida xizmatni boshlaganiga ko'p bo'lgani yo'q. Kasb sirlarini unga tuman IIB boshlig'i o'rinbosari, mayor Aziz Rahmonov va HPB boshlig'i, kapitan Sherzod Saidov hamda profilaktika katta inspektori, kapitan Ramiz Bozorovlar ustozlik qilib, tizimning o'ziga xos jihatlari, ish yuritish tartibidan saboq berishdi.



– Muzaffarjon yosh bo'lishiga qaramay, xushmuomalaligi, fuqarolar ko'ngliga yo'l topa olishi, kerak bo'lganda qat'iyatligi bois ko'pchilikning ishonchini qozongan, – deydi mahalla raisi Jobir Hotamov. – Shuning uchun ham katta-yu kichik har qanday masala bo'yicha unga tortinmay murojaat qiladi. Zarur bo'lgan paytda yo'l-yo'riqlar, maslahatlar olishadi.

U mahalla yettiligi va faollari bilan 1200 ga yaqin xonadonlarning issiq-sovug'idan xabardor bo'lish bilan birga, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, obodonlashtirish ishlariga kamarbasta bo'lib kelishyapti. Bundan tashqari, ayni paytda profilaktik hisobga olingan

19 nafar muqaddam sudlangan va spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxs bilan muntazam suhbatlar o'tkazib boryapti. Shuningdek, arziyasabablarga ko'ra janjal ko'tarib, qo'shnilar tinchini buzadigan odamlar ham doimiy nazoratda. Yana 12 ta oila-turmush doirasidagi oilaviy janjalkash profilaktik hisobga olingan bo'lib, ularni ham yarashtirish choralari ko'rildi.

– O'g'limiz Muzaffarjon yosh bir bolaning hayotini saqlab qolgani uchun shunday o'g'lim borligidan faxrlanaman, – deydi otasi Elmuhammad aka g'ururlanib.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

PROBATSIIYA XIZMATI

AMALI EZGULIKKA ESH

Har bir jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, unda tartib-intizom va qonun ustuvorligi ta'minlanishiga bog'liq. Bu borada huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxslarni qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ahamiyati katta. Bu kabi sa'y-harakatlarda qahramonimiz katta leytenant Mirabbos Ortiqovning ham munosib hissasi bor.

U Jizzax davlat universitetini psixologiya yo'nalishida tugatgach, Navoiy viloyati IIB Probatsiya boshqarmasida psixolog lavozimida ish boshladi. Mahkumlarning shaxsiyati, ruhiy holati va xulq-atvori bo'yicha tahlillar o'tkazib, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish uchun treninglar, psixologik suhbatlar o'tkazdi.

Ayni paytda esa Xatirchi tumani IIB JXX Probatsiya guruhi inspektori sifatida faoliyatini davom ettiryapti. Mas'uliyatli, tirishqoq yosh xodim malakali, tajribali xodimlarni o'ziga ustoz sanab, ularning tavsiyalariga, yo'l-yo'riqlariga doim amal qiladi. Probatsiya nazoratidagi mahkumlar o'rtasida sport musobaqalari tashkil etyapti, ularni

nojo'ya yo'ldan qaytarish, halol mehnatga, kasb-hunarga o'rgatish choralari ko'rmoqda.

– Jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishi uchun javob beradi, ammo unga umrbod jinoyatchi sifatida qarash kerak emas. Bundaylarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, ishonish va ularni jamiyatga qaytarish bizning vazifamiz, – deydi Mirabbos Ortiqov.

Tumanning «Paraxun» mahallasida istiqomat qiluvchi Anvar va Shahobiddin (ismlari o'zgartirildi) maktabni tugatib na biror oliy ta'lim muassasasiga kirdi, na biror hunar egalladi. Bekorchilik ularni qing'irlikka chorladi. Ikkalasi Navoiy shahridagi ko'p qavatli uylar yonida qoldirilgan velosipedlarni



o'g'irlashni o'zlariga kasb qildi. So'ng velosipedlarni arzonarovga sotib, tushgan pulni bo'lib olib, o'z ehtiyojlariga sarflashardi.

«Sayoq yurgan tayoq yeydi» deganlaridek, qilmishlari oshkor bo'lgach, ular qonuniy javobgarlikka tortildi. Yigitlar ilk marotaba jinoyat ko'chasiga kirgani, ular tomonidan jabrlanuvchilarga yetkazilgan zarar esa ota-onalari tomonidan qoplab berilgani uchun Anvar va Sha-

hobiddin sud tomonidan tayinlangan jazoni probatsiya nazorati ostida o'tashyapti.

Mirabbos psixolog emasmi, hozirda Anvar va Shahobiddin bilan yakka tartibda psixologik suhbat o'tkazib, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni, mas'uliyat hissini oshirish bo'yicha maslahat va tavsiyalar berdi. Yigitlarning qiziqishlarini hisobga olib, tumandagi chilangar va avtomobil ustasiga shogirdlikka qo'ydi. Ular hozir

ham hunar o'rganyapti, ham daromad olib, oilasiga foyda keltiryapti.

Lavhamiz qahramoni, shuningdek, probatsiya nazoratidagi yoshlar bilan muntazam sport musobaqalari tashkil etib, ularning vaqtini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashyapti. Bu ham, shubhasiz, xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi ezgu amallardandir.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

IKKINCHI ISTE'DOD

«VATAN» DEYA URAR YURAGI

Jizzax viloyati IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batalyoni shaxsiy tarkibi ishtirokida o'tkazilgan ertalabki yo'riqnomada jinoyatni fosh qilgani uchun 2-otryad PPX inspektori, safdor Ibrohim Mahmudovga rahbariyat tomonidan minnatdorlik bildirildi.



Ma'lum bo'lishicha, Zomin tumanining Dashtobod shahridagi bozorda qoldirilgan «Isuzi»dan 8 million so'm pul o'g'irlangan. Hududda xizmat olib borayotgan safdor zudlik bilan kuzatuv kameralari tasvirlarini o'rganib, gumon qiluvchining shaxsini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Ko'p o'tmay, Zomin tumani yashovchi O'.R. sohaviy xizmat xodimlari tomonidan ushlendi. O'z navbatida, undan hujjatlashtirib olingan pul-lar jabrlanuvchiga qaytarildi.

Ta'kidlash kerakki, hamkasblari Ibrohim Mahmudovni nafaqat faol xodim sifatida, balki sportdagi natijalari uchun ham hurmat qilishadi. Shuningdek, u maromiga yetkazib qo'shiq kuylaydi, gitara va akkordeon chaladi. U Paxtakor tumanidagi musiqa va san'at maktabida tahsil olgan. O'ziga xos ovozi hamda musiqani chuqur his qilishi

qator yutuqlarni qo'lga kiritishiga omil bo'lgan. Jumladan, 2010-yili Toshkent viloyatida yosh qo'shiqchilar o'rtasida uyushtirilgan respublika ko'rik-tanlovida 2-o'rinni egalagan. O'sha paytlarda tuman va viloyat miqyosida tashkil qilinadigan konsertlarning faol ishtirokchisiga aylangan.

Ikki yil musiqa va san'at maktabida ishlagach, harbiy xizmatga otlandi. Yigitlik burchini o'tash davomida jismoniy va jangovar salohiyatini oshirishga intildi. Milliy kurash bilan shug'ullandi. Qolaversa, gitara jo'rligida qo'shiq kuyladi. Aytgancha, shu yerda o'zining «Vatan» deb nomlangan ilk qo'shig'ini yozdi.

Harbiy xizmatdan qaytgan Ibrohim viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimida, qutqaruvchi g'avvos vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda ham sport va san'atga oid mashg'ulotlarini tark qilmadi. Natijada 2022-yili Surxondaryoda tizim vakillari o'rtasida o'tkazilgan respublika miqyosidagi kurash musobaqasida o'z vazn toifasida oltin medal

sohibi bo'ldi. O'sha yili viloyat favqulodda vaziyatlar tizimi xodimlari ishtirokida tashkil qilingan qo'l jangi musobaqasida ham zafar quchdi.

U ichki ishlar organlari xodimi bo'lish orzusidan voz kechgandir. Shu bois imkon tug'ilishi bilan viloyat IIBga hujjatlarini topshirdi va 2023-yilning avgust oyida patrul-post xizmati xodimlari safidan joy oldi.

Ibrohim Mahmudov aksar yosh xodimlar singari o'qib, izlanishda davom etmoqda. Chunonchi, bu yil Jizzax politexnika institutini tamomladi. Sportni ham, san'atni ham tashlab qo'ygani yo'q. Shu yil may oyida kurash bo'yicha viloyat ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, yaqinda «O'zbekiston» nomli ashula yozib, musiqa bastaladi. Qo'shiq ko'pchikka ma'qul keldi. Hozir batalyonning madaniy-ma'rifiy tadbirlari uning chiqishlarisiz o'tmaydi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



▶ TERGOVNI BILIMDONLAR OLIB BORADI

VAQT SINOVIDAN O'TGAN

Har bir tergov murakkab yo'l. Bu yo'lda tergovchi shubhalar oralab, aniqlikka erishishi, dalillar orasidan haqiqat yo'lini topishi lozim. Buning uchun unda bilim, tajriba, eng muhimi insonga nisbatan mehr va insof bo'lishi shart. U shaxsning aybini topish uchun emas, balki haqiqatni aniqlash uchun harakat qilishi kerak.



Jomboy tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Munisjon Turdiyev 25 yildan buyon ichki ishlar organlarida fidokorona xizmat qilib kelmoqda. Ushbu sohadagi uzoq yillik faoliyati davomida yuzlab jinoyat ishlari odilona tergov qildi. Hamisha o'z vazifasiga sidqidildan yondashib, vaqt sinovidan yorug' yuz bilan o'tdi. Hech qachon shoshmashosharlik qilmadi, har bir holatni sinchiklab o'rgandi, haqiqatni qonun va vijdon tarozisida tortishga intildi.

2010-yil. Samarqand tumani

IIB Navbatchilik qismiga kelgan xabarga ko'ra, Al Buxoriy mahallasidagi xonadonlardan birida bosqinchilik yuz bergan edi. Tergov-tezkor guruhi voqea joyiga yetib borib, holatni o'rgandi. Surishtiruv jarayonida xonadonning kelini savollarga poyintar-soyintar javob qaytarishi mayor M.Turdiyevni shubhalantirdi. Kelinchak bilan qayta suhbatlashdi. Shunda yuvon bosqinchilik voqeasini to'qib chiqarganini, niqob taqqan kimsalar uyga bostirib kirdi, deb yolg'on xabar berganligini aniqladi. Dastlabki tergov

harakatlari davomida kelin qaynotasiga tegishli bo'lgan 16 ming AQSH dollari va qimmatbaho tilla taqinchoqlarni o'g'irlab, yerto'laga yashirib qo'yganligi ma'lum bo'ldi.

– Tergovchining eng muhim jihatlaridan biri – sabr. Har bir savolga javob, har bir gumonga isbot kerak. Ayniqsa, begunoh insonni jabr ko'rishdan asrash uning burchidir. Shu bois tergovchi har qanday bosim, tahdid yoki aldov qarshisida faqat qonun va vijdoniga tayanib ish tutishi lozim. Biz gumondan rostni, yolg'ondan haqiqatni ajratuvchilarmiz, – deydi podpolkovnik Munisjon Turdiyev.

Lavhamiz qahramoni ustozlari Salim Shomurodov, Asqar G'ulomov, Akram O'tayevning maslahatlariga amal qilib, ularning yo'l-yo'riqlarini o'zi uchun oltin qoidaga aylantirgan. Endi esa to'plagan boy tajribasini shogirdlariga o'rgatyapti. Katta oilada tug'ilib voyaga yetgan M. Turdiyevning o'zi ham 5 nafar farzandning otasi, 2 nafar nabiraning suyukli bobojonisi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

▶ SPORT

ALPLAR
BAHSI

Joriy yilning 17–19-iyul kunlari IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida sportning milliy kurash turi bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqalari bo'lib o'tdi.

Bellashuvlarda umumjamoa hisobida 3-o'rin Toshkent hamda Navoiy viloyatlari polvonlariga nasib etdi. Faxrli 2-o'rinni Surxondaryo viloyati vakillari egalladi. IIV huzuridagi JIED terma jamoasi esa 3 ta oltin, 1 ta kumush va 6 ta bronza medalni qo'lga kiritib, mutlaq g'olib deb topildi hamda Ichki ishlar vazirining diplomi va kubogi bilan taqdirlandi.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.

XIZMATLARDA

YO'L ISHTIROKCHISI, HUSHYOR BO'LING!

Xorazm viloyati hududida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish maqsadida viloyat IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy e'tibor profilaktik-targ'ibot tadbirlariga qaratilib, mahallalarda, korxona va tashkilotlarda, bolalar oromgohlarida turli uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Shuningdek, ashaddiy qoidabuzar haydovchilarni aniqlash, ularning ro'yxatini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Yo'l infratuzilmasini yaxshilash avtohalokatlarning oldini olishda muhim sanaladi. Shu bois viloyat hududidagi avtomobil yo'llarini ko'rikdan o'tkazish, eskirgan yo'l belgilarini yangisiga almashtirish, yo'l yotiq chiziqlarini chizish, zamonaviy svetoforlarni o'rnatish, qabariq piyodalar o'tish joylarini tashkil etish va yo'l qoplamalaridagi nosozliklarni bartaraf etish ishlari qizg'in davom etmoqda.

– Joriy yilning o'tgan davrida sohaviy xizmatlar bilan hamkorlik-

da o'tkazilgan tadbirlar davomida 160 583 ta qoidabuzarlik aniqlandi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB Axborot guruhi katta mutaxassisi, kapitan Shavkat Bobojonov. – Aniqlangan barcha holatlar bo'yicha YPX inspektorlari tomonidan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, 40557 ta transport vositasi belgilangan tartibda jarima maydonchasiga joylashtirildi.

Ayni kunlarda mahallalarda, korxona va tashkilotlarda, muassasalarda profilaktik tadbirlar o'tka-



zilib, targ'ibot materiallari tarqatilmoqda. Qolaversa, yo'l-transport hodisalari mahallaning o'zida keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinib, hodisa sabablari, unga imkon bergan omillar atroflicha tahlil etilyapti. Shuningdek, Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan «Targ'ibot avtokarvoni» shahar va tumanlarning aholi

gavjum hududlari bo'ylab harakatlanib, ko'rgazmali materiallar, avtohalokatga uchragan mashinalar namoyishi orqali targ'ibot ishlari davom ettirilmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Jigar organizmdagi eng katta bez bo'lib, hayot uchun muhim bo'lgan bir qancha vazifalarni bajaradi. Jumladan:

- qonni zararli moddalardan tozalaydi;
- fermentlar, xolesterin, yog'larni va qondagi oqsilni sintezlaydi;
- vitaminlar va mikroelementlar, mineral moddalarni g'amlaydi;
- eski eritrotsitlarni, mikroblarni nobud qiladi;
- zararli mikroorganizmlar va infeksiyalarga qarshi kurashadi;
- ovqat hazm qilishda yordam beradigan safro suyuqligini ishlab chiqaradi;
- gormonlar, glikogen va bir qator aminokislotalar darajasini nazorat qiladi.

Ushbu a'zoning xastalanishiga ko'pincha noto'g'ri turmush tarzi, yog'li, sho'r va achchiq taomlarni ko'p iste'mol qilish, shuningdek, dori-darmonlarni o'zboshimchalik bilan qabul qilish, spirtli ichimliklarga mukkasidan ketish, yuqumli va virusli kasalliklar, kam harakatlilik, og'ir mehnat sharoitlari, semirish sabab bo'ladi.

Inson tanasidagi barcha tizimlar va a'zolar faoliyati uning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Jigar qayta tiklanish xususiyatiga ega bo'lgani bois, kasallikning ilk davrida alomatlar sezilmaydi. Jigar xastalanganida, hajmi ortadi. Shuningdek, o'ng qovurg'a ostida og'irlik va og'riq, ishtaha yo'qolishi, doimiy ko'ngil aynishi, og'izda taxir maza paydo bo'ladi. Ko'zning oq pardasi va teri qavati sarg'ayishi, qorin shishishi, holsizlik, charchoq, or-

ganizm zaharlanishi kuzatiladi. Bu holatda zudlik bilan shifokorga murojaat qilish zarur.

Jigar kasalliklari kelib chiqish sababi, rivojlanishi, davolash usullariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ularning o'xshash jihati – to'qimalarning shikastlanishi, deyarli bir xil bo'lgan alomatlar va laboratoriya tahlillari ko'rsatkichlari.

Tananing ushbu a'zosi bilan bog'liq bo'lgan gepatit kasalligining A, V, S, D, E turlari mavjud. Dunyo miqyosida keng tarqalgan gepatit jigarni zararlovchi va uning yallig'lanishiga sabab bo'ladigan kasallik hisoblanadi. Ushbu xastalik yuqumli bo'lib, jumladan A va E ko'rinishi ifloslangan suv va oziq-ovqat orqali, V, S, D esa asosan

qon va jinsiy yo'l bilan yuqadi. Kasallikning oldini olish va davolash juda muhim. Aks holda xastalikning zo'rayishi oqibatida jigar sirrozi va jigar saratoni kasalliklari yuzaga kelishi mumkin.

O'ta jiddiy va xavfli hisoblangan fibroz va sirroz kasalligining rivojlanish jarayonini orqaga qaytarib bo'lmaydi. Spirtli ichimliklar iste'moli, toksinlar, infeksiyalar, shuningdek, irsiy va metabolik buzilishlar sabab bo'ladigan ushbu kasallik chog'ida tana harorati oshishi, titrash, holsizlik, teri sarg'ayishi va boshqa zaharlanish alomatlar kuzatiladi. Kasallikning ilk davrida bemorlar xotirasi va diqqati yomonlashganidan shikoyat qiladi.

Jigarning noalkogol yog' kasalligi ushbu a'zoda nihoyatda ko'p yog' to'planishi bilan tavsiflanadi. Mazkur xastalik rivojlanishida hech bir alomat sezilmaydi. Lekin ba'zi hollarda bemor o'ng qovurg'aosti sohasida biroz og'riq va og'irlik sezishi mumkin. Bunda jigarda ko'rinarli shikastlanishlar bo'lmaydi. Qo'l bilan tegilganda, biroz og'rishi mumkin.

Jigar yetishmovchiligi inson hayoti uchun xavfli bo'lib, zudlik bilan davolashni yoki jigar ko'chirib o'tkazishni talab qiladi. Bunda infeksiya, spirtli ichimlik va boshqa sabablar ta'sirida jigar hujayralari o'ladi, oqibatda jigar yoki uning bir qismi o'z ishini bajarmay qo'yadi, qon aylanishi buziladi.

Jigar bilan bog'liq shu kabi kasalliklar mutaxassislar nazorati ostida uzoq va kompleks davolashni talab qiladi. Dori-darmonlar yordamida yengillatuvchi davolash, maxsus parhezga amal qilish va fiziologik muolajalar shular jumlasidan.

Tananing ushbu muhim a'zosi muammolar yuzaga kelmasligi uchun o'z vaqtida va to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, yog'li va zararli yeguliklar, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlaridan voz kechish, gepatit viruslariga qarshi emlanish, jismoniy harakatda bo'lish, tana vaznini oshirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Nodir EGAMBERDIYEV,
IIV Markaziy poliklinikasi
bo'linma boshlig'i, kapitan.



ПРОДУКТЫ ПРОТИВ ВЗДУТИЯ

С ощущением тяжести и вздутия живота сталкивался почти каждый. Особенно неприятно, когда это случается в самый неподходящий момент – перед важной встречей или вечером после тяжелого дня. Но с этим можно бороться с помощью правильной еды.

Медики и диетологи утверждают: некоторые продукты способны естественным образом снизить газообразование и улучшить пищеварение. Они помогают организму справиться с брожением и излишним накоплением жидкости, мягко снимают воспаление и улучшают работу желудочно-кишечного тракта (ЖКТ).

ТОМАТЫ – содержат мощные антиоксиданты и калий. Этот элемент помогает выводить лишний натрий из организма, тем самым снижая задержку жидкости и отечность. Плюс – поддерживают нормальный уровень кислотности.

АВОКАДО – еще один богатый источник калия, особенно полезен тем, кто часто



ест соленую пищу. Авокадо регулирует водно-солевой баланс и бережно поддерживает кишечник.

КЕФИР – природный пробиотик. Он содержит ферменты, расщепляющие лактозу, и помогает организму легче переваривать молочные продукты. Всего один стакан кефира в день может сократить газообразование почти на 70%.

СЕЛЬДЕРЕЙ – этот зеленый стебель – настоящий друг желудка. Он стимулирует перистальтику кишечника, снижает воспалительные процессы, способствует выведению лишней жидкости и улучшает общее состояние ЖКТ.

Вздутие может быть связано не только с пищей, но и с привычками – например, перееданием, быстрым приемом пищи, газированными напитками или стрессом.



ПОЧЕМУ ПОЛЕЗНО ПИСАТЬ ОТ РУКИ

В наш век гаджетов и экранов мы все реже берем в руки ручку. Многие после школы и университета и вовсе забывают, каково это – писать от руки. Однако врачи и нейропсихологи все чаще подчеркивают: рукописный труд – это простая и доступная тренировка мозга, полезная в любом возрасте.

Когда человек пишет от руки, активизируются сразу несколько участков мозга. Этот процесс стимулирует образование прочных нейронных связей, улучшает работу памяти, концентрацию внимания и даже мелкую моторику. По мнению специалистов, регулярное письмо от руки помогает замедлить возрастные изменения в мозге и снижает риск когнитивных нарушений.

Кроме того, письмо от руки оказывает успокаивающее действие: помогает структурировать мысли, выразить эмоции, снизить тревожность. Многие психологи рекомендуют вести рукописный дневник как способ профилактики эмоционального выгорания.

Введите простую привычку: каждый день записывайте от руки хотя бы несколько строк – план на день, благодарности, мысли или наблюдения. Это займет не больше пяти минут, но принесет огромную пользу вашему мозгу и общему состоянию.

Здоровый мозг – это не только правильное питание и спорт, но и ежедневная умственная активность. А писать от руки – это один из самых простых и естественных способов заботы о себе.



МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС

«ЗВЕЗДЫ УЗБЕКИСТАНА» СРЕДИ ЛУЧШИХ

С гордостью сообщаем о триумфальном выступлении команды «Звезды Узбекистана» на международном смотре-конкурсе «Юные инспекторы дорожного движения» среди стран СНГ, который прошел в городе Худжанде (Республика Таджикистан). Ребята достойно представили честь нашей страны, завоевав почетное второе место в общекомандном зачете!



Этот успех стал ярким подтверждением таланта, упорства и глубоких знаний молодых инспекторов дорожного движения Узбекистана. Члены команды продемонстрировали не только отличную теоретическую подготовку, но и исключительные практические навыки, проявив самоотверженность, командную сплоченность и оперативность.

Руководство ГУБДД МВД Республики Узбекистан, а также ответственные представители Министерства дошкольного и школьного образования искренне поздравили нашу команду с достигнутыми высокими результатами. В знак признания заслуг, всем участникам были вручены памятные подарки.

Этот значительный успех является прямым результатом систематической подготовки, методической и практической помощи, оказанной ГУБДД МВД. Специалисты ведомства на протяжении всего подго-

товительного процесса постоянно поддерживали членов команды, создавая все необходимые условия для их обучения и тренировок.

Команда «Звезды Узбекистана» стала настоящим примером для сверстников, показав, что целеустремленность, дисциплина и работа в команде приводят к блестящим победам. Их достижение не только прославило нашу страну, но и внесло значительный вклад в дело повышения культуры безопасности дорожного движения среди молодого поколения.

Поздравляем наших юных победителей и желаем новых свершений! Пусть их яркий пример вдохновит еще больше молодых людей на изучение Правил дорожного движения и активное участие в формировании безопасной дорожной среды.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.

Ўзбекистон Республикаси ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши ИИБ «Жар» ССМ бошлиғи, полковник Тохиритдин Зухритдинович Наджимовга онаси

ХАМИДАХОН аянинг
вафот этганлиги муносабати билан чуқур ҳамдардлик билдиради.

Тошкент вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва ИИБ Фахрийлар кенгаши истеъфодаги подполковник Файзулла Ахмедовга онаси

ГУЛИ аянинг
вафот этганлиги муносабати билан таъзия изҳор этади.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (28 июлдан 3 август)



Кўй. Жорий ҳафтада оилавий мажбуриятлар янада ортади. Ишингизга шўнғиб кетасиз. Бундан ташқари шахсий юмушлар билан кўпроқ шуғулланишга тўғри келади. Эндигина бошлаган режа ва лойиҳаларни муваффақият билан давом эттирасиз.



Бузоқ. Ушбу даврда ўтмиш воқеаларини унутиб, янги ҳаёт бошлаш пайига тушасиз. Илк кунларда молиявий ишлар билан банд бўласиз. Ҳафтанинг иккинчи ярмида сизни шахсий ҳаётингизни тубдан ўзгартириб юборадиган янгилик кутмоқда.



Эгизаклар. Мазкур ҳафтада иш билан боғлиқ барча мажбуриятларни астойдил бажаришга ҳаракат қилинг. Шу кунларда бир нечта вазифаларни бирданига амалга оширишга тўғри келади. Ҳафта охирига бориб иложи борица кўпроқ иш билан шуғулланиш пайида бўлинг. Аммо дам олиш кунларида ҳеч нимани режалаштирманг.



Қисқичбақа. Келаси ҳафтада ёмон ниятли кишилардан узоқроқ юришга ҳаракат қилинг. Чунки улар сизга фақат ташвиш келтирадилар. Сизга яхши муносабатда бўлмаганлар режаларингизга жиддий таъсир ўтказишлари мумкин. Қанчалик тўғри ҳаракат қилсангиз, ишлар шунчалик омадли кечади.



Арслон. Ҳаётингизда ўзига хос бурилиш кутилмоқда. Янги дўстлар, ҳамкорлар орттирасиз. Бу ҳафтада ўта муҳим ишлар билан банд бўласиз. Ўйин-кулгига бўлган иштиёқ қанчалик кучли бўлмасин, бу даврда сиздан сабрли, жиддий ва вазмин бўлиш талаб этилади.



Паризод. Сиз учун ўта муҳим ҳафта. Бу даврда сиз ўзингиз учун янги дўстлар орттирасиз. Ҳатто энг ушалмас бўлиб туюлган орзуларингиз ҳам рўёбга чиқиши эҳтимоли бор. Ҳафта давомида қўл қовуштириб ўтирмасдан, ишга жиддий киришсангиз, кўп нарсаларга эришиш ҳеч гап эмас. Бирор муҳим қарор қақаришдан олдин энг яқин инсонингиз билан маслаҳатлашиб олинг.



Тарози. Бу даврда кайфиятингиз кўтаринки кечиси кутилмоқда. Қандай ишга қўл урманг, албатта, бароридан келади. Руҳан тетиклик сизни ҳафта давомида тарк этмайди. Ҳафта сўнгига эса ёқимли хабар эшитишингиз ёки кимдир сизга қўшимча даромад келтирувчи иш таклиф этиши мумкин.



Чаён. Ҳафтани аъло кайфият билан бошлайсиз. Иш, шахсий ҳаёт билан боғлиқ қарорларингиз ўз самарасини бериб, атрофдагилар қаршисида обрў ва ҳурматингиз яна бир поғона кўтарилиши мумкин. Бунинг учун ҳар жабҳада ўз устида ишлаш ёрдам беради.



Ўқотар. Келаётган ҳафтада сизга кўпчилик ҳасад кўзи билан қараши мумкин. Бунга қисман ўзингиз сабабчи бўласиз. Бу каби вазиятнинг олдини олиш учун дуч келганга ютуқларингиз ҳақида гапириб, мақтанаверманг. Шахсий ҳаётда муаммолар юзага келмайди.



Тоғ эчкиси. Ҳафтангиз турли воқеа ва ҳодисаларга бой ўтади. Пул, муҳаббат ва хотиржамлик сари интилиб, ҳаракат қилишда давом этсангиз, албатта барча мақсад ва ниятларингизга эришасиз. Имкон қадар яхши танимайдиган, билмайдиган одамлар билан мулоқот қилманг. Шундай вазият юзага келганда ҳам тилингизга эҳтиёт бўлинг.



Қовға. Бу ҳафта тақдирингизда ижобий ўзгаришлар кузатилиши мумкин. Асосийси, иложи борица кайфиятингизни туширмасликка, арзимас нарсалар учун асабийлашмасликка ҳаракат қилинг. Нохуш кайфият, айниқса, ишингиз ва мавқеингиз билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишда зиён етказиши мумкин.



Балиқ. Бу ҳафта иккиланиш, ишончсизлик ҳисси сизни бироз қийнаб, бу ишда ҳам, шахсий ҳаётда ҳам фақат тўсиқлар яратиши мумкин. Шунинг учун бунга йўл қўйманг, ўзингизга ишонган ҳолда таваккалчилик билан асосий юмушларни адо этишга киришинг ва мақсадга эришинг.

ЎҚИШНИ ТАВСИЯ ҚИЛАМАН

ТУРОН МАЛИКАСИ

Шаҳодат Исахонованинг «Турон маликаси» деб аталган тарихий романини варақлар экансиз, узоқ тарих саҳифаларидаги жуда мураккаб воқеликларга гувоҳ бўласиз. Илгари ёзилган тарихий қисса ва романлар каби, бу асарда ҳам Амир Темур замонларига, аниқроғи, соҳибқирон вафотидан кейин рўй берган таҳликали йилларга, мамлакат учун бениҳоя оғир пайтларга мурожаат қилинади.

Тарих саҳнасида буюк давлатларнинг юксалиши фақатгина сиёсий иқтидор ёки ҳарбий юришлар билан эмас, балки таълим-тарбия, оилавий қудрат ва маънавий масалалар билан ҳам боғлиқдир. Айнан шу жиҳатдан қаралганда, Амир Темур салтанатида Сароймулкхонимнинг ўрни бекиёсдир.

Сароймулкхоним нафақат Амир Темурнинг энг суюкли рафиқаси, балки унинг ҳам ҳаётдаги, ҳам сиёсатдаги доно маслаҳатчиси бўлган. Унга «Бибихоним» деб ном берилгани ҳам юртдошлари қалбидаги ҳурматнинг ёрқин ифодасидир.

Сароймулкхоним Амир Темур салтанатининг фақат зийнатигина эмас, маънавий устуни ҳам бўлган. У ҳар бир Темурий шаҳзодани илм-маърифат йўлида улкан даражада тарбиялаган. Хусусан, Мироншоҳ, Улуғбек, Халил Султон каби меросхўрлар ундан сабоқ олган.

Бундан ташқари, илм ва санъатни қадрлаган Сароймулкхоним мадраса ва китобхоналар қурдиришни қўллаб-қувватлаган, аёллар обрў-эътибори ва таъсир кўламини кенгайтиришга хизмат қилган.

Тарихга назар ташласак, Сароймулкхоним ҳаётидаги энг оғир қарорларидан

бири, балки уни бундай деб аташ ҳам нотўғридир, фарзанд энг буюк неъмат эканлигини ҳис этганидан, Шод Мулкнинг Халил Султондан фарзанд кутаётганини билгач, унга ишониб ўлимдан сақлаб қолди. Лекин бу қарор қимматга тушди. Тақдирлар ва тахтни бутунлай ўзгартириб юборди. Бу эса Халил Султоннинг келгусидаги сиёсий заифлигига йўл очди. Темурийлар сулоласидаги ишонч ва интизомга путур етказди.

Нима бўлганда ҳам, Сароймулкхоним тарихда тараққиёт ҳомийси, таълим-тарбияга илк институционал асос солган аёл


лардан бири, сиёсий донолик ва инсонпарварлик тимсоли сифатида қолади.

Хулоса қилиб шуни айтишим мумкинки, романда Сароймулкхоним нафақат Амир Темурнинг рафиқаси, балки Темурийлар сулоласи келажагини шакллантиришда бевоқиф иштирок этган аёл сифатида намоён бўлди. Унинг меҳр-шафқати билан бир қаторда, сиёсий эҳтиёткорлиги ҳам тарих сабоқларидан бири бўлиб

қолди. Асосийси, Турон маликаси бўлмиш Сароймулкхоним умрининг охири дақиқасига қадар Амир Темурга маликаларга хос ҳолда содиқ қолди.

Агар сиз ҳам истеъдодли ёзувчи Шаҳодат Исахонованинг «Турон маликаси» асарини ўқиб чиқсангиз, тарих зарварақларига муҳрланган Сароймулкхонимни ўзингиз учун қайта кашф этишингиз, шубҳасиз.

Гўзал ЖАФАРОВА,
ўз мухбиримиз.



БОШҚОТИРМА

Ҳамроҳ	Намоз пайти	Пуфак	Баланд	Кўп	Халта	Маъноси бир хил сўзлар	Раис
		Амалдор, арбоб			Ҳарбий ўра	Муҳаббат	
Футбол қироли	Тузи кўп		Пари	Тўн			Европадаги дарё
		Жуфт сон			Аҳил	Зеб	
		Масжиддаги жой				Венгрия автобуси	
Мазали	Кулоқ касаллиги	Тангемнинг лавозими		Дудоқ	Фильм		
Чирой	Тааж-жуб	Қайсар	Лойиқ		Буржлардан бири		
	Ошна		Енисейнинг ирмоғи	Палов	Фаришта		
Футболдаги ҳолат	Берк эмас			Хил		Подийум	Бир оз иссиқ
		Муқимий газали		“Муъжизалар мамлақати”даги қиз	Европадаги миллат		Хат
Қуёш	Бировга қазисанг, ўзинг йиқиласан		Ракс оқшоми		Якка ижро		
			Эквадор пойтахти				
		Аҳвол	Моҳир	Дарё (Россия)		Иссиқ	
Эронлик хонанда			Халқаро илмий ташкилот		Ўлчов бирлиги		
Доно					Майда пул		

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Shuhrat RO‘ZIYEV
Yuliya CHAYKINA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 1946.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44610 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi 1^a-uy.